



UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE



2-SON

UBS TALABALAR TADQIQOTLARI

ILMIY JURNAL

2025



Bosh muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent Nurmatov Akramjon Raxmanaliyevich

Mas'ul muharrir: Mamadaliyev Shoxruh Islombek o'g'li

Mas'ul texnik muharrir: Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

Texnika fanlari: Karimov Abdusamat Ismonovich-t.f.n., dotsent, Raxmonov Oxunjon Olim o'g'li-t.f.f.d, (PhD).

Aniq va tabiiy fanlar: Yokubbayev Anasxon Akmalxonovich f.m.f. (PhD) dotsent, Mamadaliyeva Ra'noxon Zakirjonovna k.f.f.d (PhD), Xaydarov Eldorbek Raximjon o'g'li - k.f.f.d (PhD), Sobirova Xanifa G'ulomjonovna b.f.f.d, (PhD), Samandarov Shuxrat Kamolidin o'g'li k.f.f.d, (PhD).

Ijtimoiy fanlar: Tursunov Bekzod Yandashevich t.f.n dotsent, Sarimsakov Abdulatip Abduraximovich t.f.n dotsent, Mahmudov Mansurjon Abdugaffarovich t.f.f.d, (PhD) dotsent. Absattarov Baxtiyor Mamarasulovich f.f.f.d, (PhD), dotsent, Ashurov Abror Uralovich f.f.f.d, (PhD), dotsent,

Iqtisodiyot fanlari: Levakov Izzatulla Nematillayevich i.f.f.d.(PhD), dotsent, Axmedov Azam Yunusovich i.f.f.d.(PhD), dotsent, Raximov Xasan Shukurjonovich i.f.f.d.(PhD), dotsent, Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li - i.f.f.d. (PhD), dotsent, Ismoilov Ravshan Baxriddinovich - i.f.n., dotsent, Kenjayev Ikromjon Ergashboyevich i.f.f.d. (PhD), dotsent, Raximova Moxigul Isroiljonovna i.f.f.d. (PhD), dotsent, Umarkulov Kodirjon Maxammadaminovich I.f.n., dotsent, Kamoliddinov Ilxomjon Muhammadjonovich I.f.f.d (PhD), Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich I.f.f.d (PhD), Hamraqulov Ulug'bek Abduraxmatovich I.f.f.d. (PhD), Bekmurodov Nurali Xolmatovich-i.f.f.d, (PhD), dotsent, Karimov Ma'murbek O'tkir o'g'li i.f.f.d, (PhD).

Pedagogika va psixologiya fanlari: Rahimova Dildora Qodirjonovna p.f.f.d. (PhD), Karimova Nelufar Raimjonovna-p.f.f.d.(PhD), dotsent, Mullaboyeva Nargiza Sharopovna p.f.f.d.(PhD), dotsent, Usmonova Muattar Baxodirjon qizi p.f.f.d.(PhD), Daminova Gulruh Baxromovna p.f.f.d, (PhD), Shomurodova Nigora Nabijonovna p.f.n, dotsent, Yusupova Kamola Nuriddinovna p.f.f.d, (PhD),

Filologiya fanlari: Pazlitdinova Nargiza Zuriddinovna f.f.f.d. (PhD), Xashimova Xurshida Djuraxanovna f.f.f.d. (PhD), Boltabayeva Ozoda Yuldashaliyevna f.f.f.d. (PhD), dotsent, Ismanova Maluda Mamadaliyevna f.f.n. Saidnomanov Akmalxo'ja, Komiljonovich f.f.f.d, dotsent, Ibragimova Umida Yo'ldashevna f.f.f.d, dotsent,

“UBS talabalar tadqiqotlari jurnali” UBS Ilmiy-texnikaviy Kengashining 24.04.2025 yildagi 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruhsat berilgan. Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Tahririyat manzili:

Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti:

<https://ubsu.uz/uz>



Mundarija.	
03.00.00-Biologiya fanlari	
YONG‘OQDOSHLAR OILASI Isroilova Shaxrizoda Shavkat qizi Sobirova Xanifa	4
07.00.00-Tarix fanlari	
QO‘QON XONLIGIDA SAVDO VA PUL MUNOSABATI. Bozorova Maftuna Ilxomjon qizi	9
II JAHON URUSHIDAN KEYIN DUNYO MAMLAKATLARI Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o‘g‘li	18
IBROHIMBEK QO‘RBOSHINING ISTIQLOLCHILIK HARA-KATLARI Kamolov Diyorbek Jamoldin o‘g‘li	22
MUSTAQILLIK YILLARIDA AMIR TEMUR TARIXINI O‘RGANISHGA BO‘LGAN E‘TIBOR Nabijonov Umidjon Abdug‘ani o‘g‘li	25
JADIDCHILIK HARA-KATINI VUJUDGA KELISHI HAMDA UNING MOHIYATI. Turg‘unboyev Muhammadismoil Yunisali o‘g‘li	30
10.00.00-Filologiya fanlari	
NUTQNING VAZIFAVIY USLUBLARI Abduqahhorova Gulhayo Xabibullo qizi	36
INGLIZ VA RUS TILLARINING GRAMMATIK YAQINLIGI: BIRINI BILGAN HOLDA BOSHQASINI OSON O‘RGANISH YO‘LLARI Komiljonova Madinabonu Akmaljon qizi Aliyev A‘zamjon	40
MAVSUMIY XALQ BAYRAMLARI Obidova Nasiba Muhammadjon qizi	44
NAVOIYNING AYRIM BAYTLARIDA TALMEH SAN‘ATI Ravshanova Madina Zafarjon qizi	48
ИЗУЧЕНИЕ РУССКИХ ИДИОМ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ИНОСТРАННЫМИ СТУДЕНТАМИ: ТРУДНОСТИ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ Хакимова Гузалина Муроджоновна	51
13.00.00-Pedagogika fanlari	
ZAMONAVIY TA‘LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI Davranova Diloromxon Kamilovna	54
RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINI INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR Karimjanov Shuhratjon Shokirjon o‘g‘li.	58
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYA TURLARINING ZARURATI. Nosirova Shoirra Xoldorxonovna	63
BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH Turg‘unova Gulzoda Botir qizi	71
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA JONLI TABIAT BURCHAGI ORQALI EKOLOGIK VA TABIIY BILIM-KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	75



03.00.00-Biologiya fanlari YONG‘OQDOSHLAR OILASI

Isroilova Shaxrizoda Shavkat qizi
University of Business and Science
Biologiya fanlari ta’lim yo‘nalishi
24-01 guruh 1-bosqich talabasi.
Shahrizodaisrailova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sobirova Xanifa

Annotatsiya: Dunyo mamlakatlarida yong‘oqning istiqbolli nav va shakllarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari keng rivojlangan. Ushbu maqolada yong‘oq o‘simligini istiqbolli navlari, shakllarini yaratish bo‘yicha va ularning tarkibi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yong‘oq, kalloriya, modernizatsiya, istiqbolli nav, ekologik turizm, Juglans regia.

NUT FAMILY

Abstract: Scientific research on the creation of promising walnut varieties and forms is widely developed in the countries of the world. This article provides information on the creation of promising varieties and forms of walnut plants and their composition.

Keywords: Walnut, calorie, modernization, promising variety, ecotourism, Juglans regia.

СЕМЕЙСТВО ОРЕХОВ

Аннотация: В странах мира широко развиты научно-исследовательские работы по созданию перспективных сортов и форм грецкого ореха. В данной статье представлена информация о создании перспективных сортов и форм ореха и их составе.

Ключевые слова: Орех, калория, модернизация, перспективный сорт, экологический туризм, Juglans regia.

Hozirgi vaqtda axolining jadal so‘ratlar bilan ko‘payishi bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shunday muamolardan biri bu axolini to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirishdir. Bu muamoni bartaraf etish uchun esa mavjud yer maydonlaridan unumli foydalanish va yuqori to‘yimlilik darajasiga ega bo‘lgan o‘simliklar maydonini ko‘paytirish zarur [1]. Insonning hayot faoliyatida yong‘oqning ahamiyati juda katta. Yong‘oq mevasi boshqa mevalardan oziqaviy xususiyatlariga ko‘ra yuqori kalloriyaligi bilan ajralib turadi.

Yong‘oq mag‘zi kalloriyaliligi jihatidan mol go‘shidan 7 barobar ustun turadi. Yong‘oq mag‘zida temir, fosfor, mis, serotonin moddalari, 58–77 % yog‘, 12–25 % oqsil va 5–25 % uglevodlar mavjud. Uni iste‘mol qilgan kishi quvvatini oshirib, asab tizimining faoliyatini me‘yorlashtiradi. Yong‘oq moyi qondagi xolesterinni kamaytirib, yurak-qon tomirlarida tiqinlar, buyrak va o‘t pufagida tosh



paydo bo'lishini bartaraf etadi. Yong'oqni mamlakatimiz tuproq-iqlim sharoitida tog' va tog' oldi hududlarida, daryo va soylar bo'ylarida, qir-adirliklari tekisliklarda, aholi tomorqalarida ko'plab yetishtirish mumkin [2]. Qolaversa, yong'oq daraxtlari 300–400 yilgacha yashab, hosil berishini inobatga olsak, uning hosilidan bir necha avlodlar bahramand bo'ladi. Daraxti–o'rmon melioratsiya ishlarida katta ahamiyatiga ega. Plantatsiyalari asosan tekisliklarda sug'oriladigan maydonlarda barpo etiladi. SHuningdek, yong'oqni yog'insochin miqdori 750–800 mm, dan kam bo'lmagan tog'li hududlarda lalmikor sharoitda ham yetishtirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida “Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish” bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun o'rmonchilarning oldiga bir qancha vazifalar qo'yilishi kerak. Xususan, «O'rmon to'g'risida» gi (2018 yil 16 aprel) Qonun [2, 6] Respublikamiz o'rmon resurslarining boy salohiyatidan to'la-to'kis va oqilona foydalanishni ta'minlash, o'rmon xo'jaligi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 11 mayda qabul qilgan “O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” PQ-2966-son qarori sohaning moddiy-texnika bazasi jismonan va ma'nan eskirgani va yetarli darajada modernizatsiya qilinmayotgani, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning grantlarini sohaga jalb qilish ishlarining sustligi, ushbu tarmoqda yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi, o'rmon qonunchiligidagi ayrim me'yorlarning amaliy ahamiyati va ularni amalga oshirish mexanizmi yo'qligi soha faoliyatini rivojlantirish, o'rmonlarni ko'paytirish, muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan [4].

O'zbekiston Respublikasining O'rmon xo'jaligiga tegishli maydonlari 2018-yil dekabr oyi holatiga nisbatan 11 mln 500 ming gektarni tashkil qiladi [7]. Lalmi yerlardan foydalanishni rag'batlantirish va samaradorligini yanada oshirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lgan yong'oq ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hisobiga zamonaviy yong'oq plantatsiyalarini barpo qilish hamda yong'oq yetishtirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida, Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyun PQ3025-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, «Sag agro» va «Sam antep gilam» mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining [5]: Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini Uyushma tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida yong'oqchilik ilmiy-tadqiqot markazi, yong'oq logistika markazi, «Sag agro mtp» MCHJ, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo,



Namangan va Toshkent viloyatlarida hududiy «Yong'oq agro» MCHJ tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin. Hozirgi vaqtda qandolat sanoatining yong'oqqa bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda, ammo bizda yong'oq mevasi yetishtirish masalasi talab darajasida emas. SHu sababga ko'ra, yong'oqqa bo'lgan sanoat va aholi talablarini to'la qondirish uchun tog'li hududlarimizda sanoat asosida yangi yong'oqzorlar barpo qilishga imkoniyatlarimiz yetarli.

Bu oilaning vakillari daraxt o'simliklardir. Ularning tanasi baland bo'yli, sershox, keng shox-shabbali bo'ladi. Barglari yirik, toq patsimon murakkab tuzilgan bo'lib, ma'lum bezchalaridan hidli efir moyi chiqadi. Ular navbat bilan joylashadi, kuzda to'kiladi, yon bargchalari yo'q. Bular bir uyli, ayrim jinsli o'simlik, erkak gullari kuchala hosil qiladi. Kuchalalari barglar qo'ltig'ida vujudga keladi. Urg'ochi gullari shingilchalar shaklida bo'lib, sergbarg novdalar uchida bittadan yoki bir nechtdan joylashadi. Gulyon bargchalari bor. Gulqo'rg'oni oddiy bo'lib, gulyon bargcha bilan qo'shib o'sib, meva po'stini hosil qiladi. Mevasi danakli soxta meva. Mag'zi burishgan, yirik urug'pallali. Urug'i endospermasiz. Yog'ochi qattiq, chiroyli bo'lganidan undan turli buyumlar ishlanadi. Ayrim turlarining mevasi, ya'ni yong'og'i iste'mol qilinadi. Oilaning 8 turkumi va 50 ga yaqin turi bor. Ular shimoliy yarim sharning mo'tadil iqlimli zonalarida tarqalgan.

Yong'oqdoshlar oilasida keng tarqalga turkumlar yong'oq, gikori (kariya) va lapina (pterokariya) dir. Yong'oq (*Juglans*) turkumi. Bu turkumning vakillari katta daraxt bo'lib, tanasi yo'g'on, shox-shabbasi yoyiq. Yon novdalari qirrali. Barglari yirik, toq patsimon bo'lib, spiral shaklida joylashadi. Qo'ltiq kurtaklari 2-3 tadan qalin joylashadi. Barglari to'kilgach, o'rnida yuraksimon iz qoladi. Bir uyli, ayrim jinsli o'simlik. Barg yozish bilan bir vaqtda gullaydi, shamol vositasida changlanadi. Kuzda vujudga kelgan kuchalaning guldorpoyasi gullash vaqtida nihoyatda uzuyadi va kuchala pastga osilib qoladi. Urg'ochi guli siyrak shingilcha hosil qiladi va novdaning uchki qismida joylashadi. Urg'ochi va erkak gullari turli muddatda ochiladi. Bu hodisa odatda, dixogamiya deb ataladi. Gulko'rg'onning tugunchasi va yon barglari o'zaro qo'shib o'sishi natijasida tashqi yashil rangli et-po'st hosil bo'ladi. Mevasi kuzda yetiladi, ayrim turlarida yetilganida yorilib, yong'og'i po'stidan ajraladi. Yong'og'i ikki pallali, yog'ochlangan qobiqli, bir urug'li bo'lib, tarkibida moy va oqsil moddalar ko'p. Yong'oq daraxtlarining yog'ochi qattiq, chiroyli, mevasining mag'zi juda mazali bo'ladi. Quyida ularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Grek yong'og'i (*Juglans regia* L.) bo'yi 25-30 m ga, diametri 1-2 m ga yetadigan daraxt. SHox-shabbasi keng, sharsimon. SHox va novdalarining po'stlog'i silliq, oqish po'st tashlab turadi. Barglari toq patsimon, bo'yi 40 sm gacha yetadi, 7-9 ta bargchalari bor, uchidagisi eng yirik, tubidagisi ancha mayda bo'ladi. Barglari hidli efir moyi chiqarib turadi. Gullari ayrim jinsli, bir uyli. Barg yozish bilan bir vaqtda (aprel oyida) gullaydi. SHamol vositasida chetdan changlanadi. Mevasi bitta yoki bir nechtdan to'da bo'lib joylashadi. Ular sentyabr oyida yetiladi, qo'ng'ir-yashil, oval shaklda ustki seret po'sti mevasi yetilganda yoriladi. Undan yong'oq osonlik bilan ajraladi, yong'oqning qobig'i qalin, ustki tomoni cho'tir, ochg'isht rangda. Ayrim navlarining qobig'i yupqa bo'lib, ularni chaqish ancha oson,



bunday navlar ayniqsa diqqatga sazovor. Mag'zi to'siqlar bilan qismlarga ajraladi. Uning tarkibida 60-70 % moy bor, S vitamiga nihoyatda boy. Mag'zi iste'mol qilinadi va texnikaviy xususiyatlari yuqori.

O'zbekistonda mahalliy xalq yong'oq deb ataydigan yong'oqmevali daraxtning nomi (*Juglans regia orex gretskiy*) bo'lib, u yong'oqdoshlar (*Juglandaceae*) oilasiga mansubdir. Yong'oq daraxti 20 m balandlikka va 1-1,5 m diametriga ega bo'lib, 100- 150 yilgacha o'sib hosil beradi. Sernam, unumdor tuproq sharoitlarida 300-400 yilgacha yashashi mumkin. Yong'oq 70 yoshigacha mo'l hosil beradi, ayrim tuplaridan 300-350 kg gacha hosil yig'ib olingan. O'rtacha 150-200 kg hosil beradi. Mevasi – yolg'on danak, po'sti yog'ochsimon, qobiq va urug'i ikki pallali, mazali.

O'zbekistonda yong'oq mevasi odatda sentyabrning oxiri-oktyabr boshlarida pishib yetiladi. Erkak gullari erta bahorda barg yozishdan oldin paydo bo'ladi va 15-25 kun rivojlanadi. Urg'ochi gullari ham erta bahorda hosil bo'ladi va changlanib rivojlanadi. Gullari sarg'ish- yashil rangli bo'ladi. Mevasi kuz oyida sentyabr oktyabrda yetiladi va suv hamda kushlar yordamida tarqaladi. Urug'lari yong'oqcha, ovalsimon, och-jigar rangda, uzunligi 3-5sm. gacha yetadi. 1000 dona urug' og'irligi 6500-15000 gr., ni tashkil etadi.

Grek yong'oqlari O'rta Osiyoda - Kirg'iziston, Tojikiston, Kozog'iston O'zbekistonda va Kavkaz mamlakatlarida tarqalgan. O'rta Osiyo va Kavkaz mamlakatlarida keng madaniylashtirilgan hamda ekib o'stiriladi. Janubiy o'lkalarda yaxshi o'sadi. Bulardan tashqari Ukraina, Yevropa mamlakatlari, Shimoliy Amerikagacha yong'oq turlari tarqalgan. U yaproqli va aralash o'rmonlarda boshka daraxtlar bilan birga o'sadi. U sovuqqa chidamli. Tuproqqa unchalik talabchan emas, baquvvat yengil tuproqlarda yaxshi o'sadi, qurg'oqchilikka chidamli, sernam tuproqlarda ham juda yaxshi o'sadi. O'rmon melioratsiyasi ishlarida xam muxim o'rinni egallaydi. Tog' o'rmon melioratsiya ishlarida terassali katorlarga ekish tavsiya kilinadi. Keng bargli o'rmonlar esa 2 kg organik moddalarni chiqarishadi. Masalan, efir moyli daraxtlar (yong'oq, tuya, biota, archa, va boshqalar) mikroblarni 67 % gacha kamaytiradilar. Bu o'simliklar oddiy mikroorganizimlarni 3,5 - 5 daqiqalarda o'ldiradilar. SHuning uchun tog' yon bag'irlariga ko'proq ekilsa, havodagi mikroblar kamayadi, kislorod, ozot ko'payadi.

Qora yong'oq - (*Juglans nigra*). O'rta Osiyoda-Kirg'iziston, Tojikiston, Kozog'iston va O'zbekistonda va Kavkaz mamlakatlariga introduksiya qilingan. O'zR FA Botanika bog'iga 1950-yillardan boshlab introduksiya qilingan va hozirgacha o'sadi. U sovuqqa chidamli. Tuproqqa unchalik talabchan emas, qurg'oqchilikka chidamli. Kaliforniya yong'og'i-(*Juglans californica*).

Yong'oqdoshlar (*Juglandaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik daraxt o'simligidir, vatani Amerikaning Kaliforniya shtati. Uning bo'yi vatanida 25 m bo'lgan daraxtdir. Tanasining rangi och-kulrangda, pastki qismi chiziq bo'lib yorilgan, shoxlari och yoki to'q yashil ranli bo'ladi. Mevasi kuz oyida yetiladi. Mevasi mayda, po'stlog'i qalin. Urug'lari yong'oqcha, ovalsimon, qora rangda, og'irligi 3 - 12 gr. ni tashkil etadi. Kaliforniya yong'oq O'zR FA Botanika bog'iga



1952 yillardan boshlab introduksiya qilingan va hozirgacha o'sadi. U sovukqa chidamli. Tuproqqa unchalik talabchan emas, qurg'oqchilikka chidamli.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada mavzu doirasida ilgari surilgan asosiy fikr-mulohazalar va tahlillar asosida shuni ta'kidlash joizki, daraxtzorlar va yong'oq (Juglans regia) navlarini yetishtirish nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Yangi istiqbolli yong'oq navlarini tanlab olish, ularning biologik va xo'jalik-foydalilik belgilari asosida seleksiya ishlarini olib borish zamonaviy bog'dorchilik va o'rmon xo'jaligi sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, yong'oq daraxtlari tuproq unumdorligini oshiradi, havoni kislorod bilan boyitadi hamda yuqori hosildorligi va eksportbopligi bilan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, mahalliy va xorijiy ilg'or tajribalardan unumli foydalanish, yong'oq plantatsiyalarini tashkil etishda hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olish, zamonaviy agrotexnik usullarni qo'llash yong'oq yetishtirish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Kelgusida yong'oq navlarini yanada mukammallashtirish, ularning kasalliklarga chidamliligini oshirish va yuqori sifatli mahsulot olish bo'yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarur. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliy ishlar O'zbekiston qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. B. 25-28.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'rmon to'g'risida” gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning 2018 yil 16 apreldagi sessiyasi. – Toshkent, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil yetish to'g'risida PQ-2966 qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 y., 20-con, 358- modda. B. 36-40
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyun PQ-3025-son qarori
5. O'rmon to'g'risida” gi qonun. O'z. Res. Oliy majlisining xv-sessiyasi materiallari.
6. O'zbekiston o'rmonlari. Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2009. - 5-13 bet.
7. Ablaev S.M., Yuldashov Ya.X. Madaniy o'rmonlar. – Toshkent, 2008.



07.00.00-Tarix fanlari

QO'QON XONLIGIDA SAVDO VA PUL MUNOSABATI.

Bozorova Maftuna Ilxomjon qizi

University of Business and Science

Ijtimoiy va gumanitar fanlar fakulteti tarix yo`nalishi talabasi.

bozorovamaftuna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo'qon xonligining savdo va pul munosabatlari tahlil qilinadi. Xonlik Markaziy Osiyodagi muhim iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, xalqaro va ichki savdo rivojlangan hududlardan biri hisoblangan. Xitoy, Hindiston, Rossiya va Buxoro bilan olib borilgan savdo aloqalari Qo'qon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xonlikning pul tizimi, soliq siyosati, bojxona tartiblari va savdogarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar batafsil yoritiladi. Shuningdek, Qo'qon xonligining iqtisodiy siyosati, karvon yo'llari va savdo markazlari tahlil qilinib, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, savdo munosabatlari, Ipak yo'li, xalqaro savdo, pul tizimi, bojxona soliqlari, karvonsaroylar, hunarmandchilik, eksport, import, tanga islohoti.

THE RELATIONSHIP WITH MONEY IN THE KOKON KHANLIG.

Abstract: This article analyzes the trade and monetary relations of the Kokand Khanate. The Khanate was one of the important economic centers in Central Asia and was considered one of the regions with developed international and domestic trade. Trade relations with China, India, Russia and Bukhara had a significant impact on the Kokand economy. The monetary system, tax policy, customs procedures and conditions created for merchants of the Khanate are described in detail. The economic policy, caravan routes and trade centers of the Kokand Khanate are also analyzed, revealing its place in the Central Asian region.

Keywords: Kokand Khanate, trade relations, Silk Road, international trade, monetary system, customs taxes, caravanserais, crafts, export, import, coinage reform.

ОТНОШЕНИЕ К ДЕНЬГАМ В КУКОНСКОМ ХАНЛЫГЕ.

Аннотация: В статье анализируются торговые и денежные отношения Кокандского ханства. Ханство было одним из важнейших экономических центров Средней Азии и считалось одним из регионов с наиболее развитой международной и внутренней торговлей. Значительное влияние на экономику Коканда оказали торговые связи с Китаем, Индией, Россией и Бухарой. Подробно освещены денежная система, налоговая политика, таможенные процедуры, условия, созданные для купцов ханства. Анализируются также экономическая политика, караванные пути и торговые центры Кокандского ханства, выявляется его место в среднеазиатском регионе.



Ключевые слова: Кокандское ханство, торговые отношения, Шелковый путь, международная торговля, денежная система, таможенные пошлины, караван-сарай, ремесла, экспорт, импорт, реформа чеканки монет.

Qo‘qon xonligi (1709–1876) Markaziy Osiyodagi yirik iqtisodiy va savdo markazlaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos pul tizimi va rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega edi. Xonlik hududi strategik jihatdan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani sababli, ichki va xalqaro savdo keng rivojlangan. Ayniqsa, Ipak yo‘li orqali Xitoy, Hindiston, Rossiya va Buxoro bilan olib borilgan savdo aloqalari Qo‘qon xonligining iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Savdogarlar Qo‘qon xonligining iqtisodiy tizimida markaziy o‘rinni egallab, davlat byudjetining katta qismini to‘ldirgan.

Xonlikda savdo-sotiqni qo‘llab-quvvatlash maqsadida karvonsaroylar, omborxonalar va maxsus bozorlar tashkil etilgan. Ichki bozorlarda hunarmandchilik mahsulotlari, ipak, paxta, qurol-yarog‘ va chorvachilik mahsulotlari savdosi qizg‘in olib borilgan bo‘lsa, xalqaro savdoda ipak, gilam, paxta va metall buyumlar asosiy eksport tovarlari hisoblangan[1,49-50]. Qo‘qon xonligida savdo aloqalarini yanada rivojlantirish uchun pul tizimi isloh qilingan, muomalaga kumush va tilla tangalar chiqarilgan.

Xalqaro savdoda Rossiya rubli va Xitoy tangalari ham muomalaga kiritilgan. Shuningdek, xonlik savdogarlardan olinadigan soliqlar va bojxona to‘lovlari orqali davlat g‘aznasini to‘ldirib borgan. Yillik daromadning katta qismi bojxona soliqlari, eksport va import soliqlari, bozor soliqlari va savdo yo‘llaridan tushgan to‘lovlardan shakllangan. Mazkur maqolada Qo‘qon xonligining savdo-sotiq tizimi, savdogarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, savdo mahsulotlari, transport vositalari, pul tizimi va soliqlarning davlat byudjetiga ta‘siri batafsil yoritiladi[2,85-90].

Qo‘qonxonlikda savdogarlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan edi. Davlat tomonidan savdo faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi sharoitlar tashkil etilgan:

- Savdo ruxsatnomalari – Savdogarlar erkin savdo qilishlari uchun maxsus ruxsatnomalar berilgan. Bu hujjatlar ichki va tashqi bozorlarda savdo qilish imkonini bergan.

- Karvonsaroylar va omborxonalar – Yirik bozorlarda savdogarlar uchun tovarlarini saqlash va dam olish imkonini beradigan maxsus inshootlar qurilgan.

- Bozor infratuzilmasi – Savdo markazlarida mehmonxonalar, savdo rastalari, saqlash joylari va moliyaviy tranzaksiyalar uchun xizmatlar mavjud bo‘lgan.

- Solik imtiyozlari – Xalqaro savdo bilan shug‘ullanuvchi savdogarlarga ba‘zi bojxona to‘lovlari bo‘yicha chegirmalar berilgan.

- Xavfsizlik choralari – Savdogarlarning mollarini himoya qilish va karvon yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida maxsus qo‘riqchilar tayinlangan.

- Tovarlarni tekshirish va sertifikatlash – Savdo rastalarida sifat nazorati o‘rnatilgan bo‘lib, sifatsiz mahsulotlar sotilishining oldi olingan.

Bu shart-sharoitlar Qo‘qon bozorlarini nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo markazlariga aylantirgan. Qo‘qonxonligida savdo bozorlari juda rivojlangan



bo‘lib, ular ichki va xalqaro savdo markazlari sifatida xizmat qilgan. Asosiy bozorlarga quyidagilar kirgan:

Qo‘qon bozori – xonlikdagi eng yirik savdo markazi bo‘lib, ipak va qimmatbaho tovarlar savdosi bilan mashhur edi.

Marg‘ilon bozori – asosan ipak ishlab chiqarish va savdosi bilan ajralib turgan. Marg‘ilon ipak matolari Hindiston va Xitoy bozorlarida ham mashhur bo‘lgan.

Andijon bozori – chorvachilik mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlari bilan mashhur edi. Bu yerda asosan qo‘y, yilqi, sigir va ularning mahsulotlari bilan savdo qilingan.

Toshkent bozori – xalqaro tranzit markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, Rossiya va boshqa qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalarining muhim qismi edi.

Bozorlar doimiy faoliyat yuritgan bo‘lib, u yerda mahalliy va xorijiy savdogarlar uchun maxsus rastalar, omborxonalar va mehmonxonalar tashkil etilgan. Savdo markazlarida moliyaviy tranzaksiyalarni osonlashtirish uchun valyuta almashinuvi tizimi ham mavjud bo‘lgan [2,143-150].

Qo‘qonxonlikdagi savdo mahsulotlari quyidagilardan iborat edi:

Ipak – Marg‘ilon va Qo‘qonda ishlab chiqarilib, asosan Xitoy va Hindistonga eksport qilingan. Qo‘qon ipak matolari o‘zining sifati bilan ajralib turgan.

Paxta – Rossiya va boshqa qo‘shni davlatlarga eksport qilingan. Paxta xalqaro bozorda qimmatbaho xomashyo hisoblangan.

Metall buyumlar – hunarmandlar tomonidan tayyorlanib, ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Qo‘qonlik hunarmandlar tomonidan yasalgan pichoqlar, xanjarlar va boshqa metall buyumlar katta talabga ega bo‘lgan.

Qurol-yarog‘ – Qo‘qon ustaxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qilichlar, nayzalar va boshqa harbiy jihozlar qo‘shni davlatlarga ham yetkazib berilgan.

Keramika va zargarlik buyumlari – mahalliy va xalqaro bozorlarda katta talabga ega bo‘lgan. Xususan, Farg‘ona vodiysining zargarlik buyumlari nafis dizayni bilan mashhur bo‘lgan.

Chorvachilik mahsulotlari – Andijon va Toshkent bozorlari orqali qo‘y, yilqi, sigir va ularning mahsulotlari sotilgan. Mahsulotlar odatda karvon yo‘llari orqali Xitoy, Hindiston va Rossiya tomon olib ketilgan. Savdogarlar tovarlarni temir idishlarda, teri xaltalarda yoki maxsus yog‘och sandiqlarda tashiganlar [3,14-21]. Qo‘qon xonligida mahsulotlarni olib kelish va oborib sotish jarayoni yaxshi tashkil etilgan bo‘lib, ichki va xalqaro savdoning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Bu jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan:

1. Mahsulotlarning kelib chiqishi va ishlab chiqarish joylari

Qo‘qon xonligida mahsulotlarning katta qismi ichki hududlarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa-da, ayrim muhim tovarlar qo‘shni davlatlardan ham import qilingan.

Ipak va ipak mahsulotlari – asosan Marg‘ilon va Qo‘qonda ishlab chiqarilgan.



Paxta – Farg‘ona vodiysining dehqonchilik hududlarida yetishtirilgan.

Metall buyumlar va qurol-yarog‘–Qo‘qon va Andijon ustaxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan.

Keramika va zargarlik buyumlari–Farg‘ona vodiysining yirik hunarmandchilik markazlarida tayyorlangan.

Choy va ziravorlar – asosan Hindistondan va Xitoydan olib kelingan.

Mahsulotlar uzoq masofalarga yetkazib berishda turli transport vositalari orqali tashilgan:

Tuyalar karvoni – uzoq masofalarga og‘ir yuklarni tashishda asosiy vosita bo‘lgan.

Ot va aravalar – qisqa masofalarda tez yetkazib berish uchun ishlatilgan.

Daryo kemalari – Sirdaryo orqali yuklarni arzon va samarali tashish imkoni bo‘lgan.

Savdo markazlarida mahsulotlarni uzoq vaqt saqlash uchun maxsus omborxonalar va karvonsaroylar tashkil etilgan. Bu joylar savdogarlar uchun tovarlarini xavfsiz saqlash va keyinchalik sotish imkonini bergan.

Qo‘qon xonligida bozorlarda savdo yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mahsulotlarning ko‘pchiligi ichki bozor orqali sotilgan yoki xalqaro savdoga yo‘naltirilgan.

Qo‘qon bozori – eng yirik savdo markazi bo‘lib, xalqaro savdogarlar uchun ham ochiq bo‘lgan.

Marg‘ilon va Andijon bozorlari – asosan ipak, paxta va hunarmandchilik mahsulotlari bilan mashhur.

Toshkent bozori – xalqaro tranzit markazi bo‘lib, Xitoy, Hindiston va Rossiyadan kelgan savdogarlar uchun muhim savdo punkti hisoblangan.

Qo‘qon xonligi savdogarlari mahsulotlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha eksport qilganlar:

Xitoy – ipak, charm va gilamlar eksport qilingan, evaziga choy va ip gazlama import qilingan.

Hindiston – ipak matolar va qimmatbaho toshlar eksport qilingan, ziravorlar va dori-darmon mahsulotlari olib kelingan.

Rossiya – paxta va charm mahsulotlari eksport qilingan, metall buyumlar va qurol-yarog‘ import qilingan.

Savdo jarayonida asosiy to‘lov vositalari sifatida tilla, kumush va mis tangalar ishlatilgan. Xalqaro savdoda esa Rossiya rubli va Xitoy tangalari ham muomalada bo‘lgan.

Mahsulotlar bozor ichida barter shaklida ham almashtirilgan. Masalan, paxta va ipakni qurol-yarog‘ yoki ziravorlarga almashtirish keng tarqalgan amaliyot bo‘lgan.

Xalqaro savdodan davlatga daromad tushumi quyidagi soliqlar orqali amalga oshirilgan:

Zakot – musulmon savdogarlar tomonidan to‘langan.

Bojxona to‘lovlari – xalqaro savdo uchun belgilangan.

Xiroj – dehqonlar tomonidan to‘langan.



Ayrim yillarda xalqaro savdodan tushgan soliq va bojxona to‘lovlari Qo‘qon davlat g‘aznasining 60% gacha qismini tashkil qilgan.

Bu murakkab savdo tizimi Qo‘qon xonligining iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilgan va uni Markaziy Osiyodagi eng muhim savdo markazlaridan biriga aylantirgan.

Qo‘qonxonligida pul islohoti va pul tizimi davlatning iqtisodiy barqarorligini saqlash va savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Xonlikdagi pul tizimi muomalada bo‘lgan tangalar, ularning sifati, xalqaro savdoda qo‘llanilishi va davlat daromadlarini tartibga solish kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan[3,42-44].

Qo‘qon xonligida pul tizimi o‘zgarishlarga uchrab, turli hukmdorlar tomonidan bir necha marotaba isloh qilingan:

1.Dastlabki bosqich (XVIII asr boshlarida)

Qo‘qon xonligi mustaqillikka erishgach, dastlab Buxoro va Xiva tangalari muomalada bo‘lgan. Shohruhbiy va Abdurahimbiy davrida ilk bor Qo‘qon tangalari zarb etila boshlangan. Bu tangalar kumush va misdan yasalib, mahalliy bozorlarda asosiy to‘lov vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Irdana biy (1750–1764) davridagi islohotlar

Kumush tangalar sifati yaxshilanib, ichki bozorda keng muomalaga kiritilgan. Tangalar ustiga xonlik ramzlari va arab yozuvlari bosilgan. Xalqaro savdoda Buxoro va Toshkent tangalari bilan bir qatorda Qo‘qon tangalari ham ishlatilgan.

Xonlikning iqtisodiy ravnaqi davridagi pul tizimi (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi)

Savdo hajmining ortishi natijasida Qo‘qon tangalariga talab oshgan. Kumush va tilla tangalar asosiy muomaladagi pul birliklari bo‘lib xizmat qilgan. Xalqaro savdoda Rossiya rubli ham ishlatila boshlangan.

Xudoyorxon (1845–1858, 1865–1875) davridagi islohotlar

Pul tizimining barqarorligini saqlash uchun yangi zarbxona tashkil etilgan. Kumush va mis tangalar hajmi orttirilgan, biroq mis tangalar haddan tashqari ko‘payib ketib qadrsizlangan. Rossiya rublining Qo‘qon hududida keng tarqalishi mahalliy pul tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. XIX asrning oxiriga kelib, Qo‘qon tangalari qadrsizlanib, Rossiya rubli asosiy savdo vositasiga aylana boshlagan.

Qo‘qon xonligida quyidagi pul birliklari ishlatilgan:

Tilla tangalar (tilla) – yirik savdolarida va xalqaro tranzaktsiyalarda ishlatilgan.

Kumush tangalar (tanga, tiyin) – bozorlarda asosiy to‘lov vositasi sifatida keng qo‘llanilgan.

Mis tangalar (pul) – oddiy xalq orasida keng muomalada bo‘lib, kundalik ehtiyojlar uchun ishlatilgan.

Rossiya rublining kiritilishi – xonlikning Rossiya bilan savdo aloqalarining ortishi natijasida rubl qo‘llanilishi kengaygan.



XIX asrning o‘rtalariga kelib, Qo‘qon tangalarining qadrsizlanishi bir necha omillarga bog‘liq bo‘lgan: Kumush va tilla tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning pasayishi.

Rossiya rublining xonlik hududida keng muomalaga kirib kelishi. Davlat harbiy xarajatlarining oshishi natijasida pul islohotlarining samarasizligi. Barcha islohotlarga qaramay, Qo‘qon xonligi iqtisodiy inqirozga uchragan va 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, xonlikning pul tizimi butunlay yo‘q bo‘lib, uning o‘rniga Rossiya pul tizimi joriy etilgan. Qo‘qon xonligida soliq tizimi yaxshi tashkil etilgan bo‘lib, davlat daromadlarining katta qismini aynan savdogarlardan tushgan soliqlar tashkil qilgan. Soliq tizimi murakkab bo‘lib, savdogarlar faoliyatiga qarab turli xil soliqlar joriy etilgan. Xonlikda savdogarlardan olinadigan soliqlar ichki va xalqaro savdo uchun alohida tartibda belgilangan.

Savdogarlar uchun asosiy soliqlar:

- **Zakot** – Islom qonunlariga asoslangan savdo solig‘i

Zakot musulmon savdogarlar tomonidan yillik foydaning 2,5% miqdorida davlatga to‘langan. Bu soliq diniy va iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lib, xonlik g‘aznasini to‘ldirishda muhim rol o‘ynagan. Zakot faqat musulmon savdogarlarga taalluqli bo‘lib, bu soliqlarning bir qismi xayriya va jamoat ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Asosan, yirik karvon savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar zakot to‘lashga majbur bo‘lgan.

- **Bojxona to‘lovlari** – Xalqaro savdodan olinadigan soliq

Qo‘qon xonligi xorijiy davlatlar bilan faol savdo olib borgan va xalqaro savdodan bojxona soliqlari undirilgan. Bojxona solig‘i miqdori: Xorijdan olib kirilgan tovarlar qiymatining 5–10% ini tashkil etgan. Mahsulot turiga qarab bojxona stavkalari o‘zgarib turgan: Qimmatbaho tovarlar (ipak, zargarlik buyumlari, ziravorlar) – yuqori bojxona solig‘iga tortilgan. Kundalik ehtiyoj mahsulotlari (g‘alla, mevalar) – pastroq bojxona stavkalari bilan belgilangan. Rossiya, Xitoy, Hindiston va Buxorodan kelgan savdogarlarga alohida bojxona tartibi qo‘llanilgan.

- **Xiroj** – Dehqonlar va hunarmandlardan olinadigan soliq

Xiroj asosan yer egalari va hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan to‘langan, ammo ba’zi hollarda yirik savdogarlar ham ushbu soliqni to‘lagan. Tovar ishlab chiqaruvchilar (ipak, paxta yetishtiruvchilar) ham xiroj to‘lagan. Mahsulotlarning qaysi bozorga chiqarilishiga qarab, xiroj miqdori o‘zgarib turgan.

- **Karvon soliqlari** – Savdo yo‘llaridan foydalanganlik uchun to‘lov

Qo‘qon xonligida savdo karvonlari uchun maxsus soliq tizimi mavjud bo‘lib, savdogarlar harakatlanayotgan hududga qarab to‘lovlarni amalga oshirganlar. Har bir karvon uchun yo‘l haqi yoki boj to‘lovi belgilangan[3,103-104].

Savdogarlar harakatlanadigan asosiy yo‘nalishlar:

- Qo‘qon – Toshkent – Buxoro – Xiva – Kaspiybo‘yi
- Qo‘qon – O‘sh – Qashqar – Xitoy
- Qo‘qon – Andijon – Farg‘ona – Hindiston

Karvonlarning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida davlat tomonidan maxsus qo‘riqchilar ajratilgan.



Bozor solig‘i (Bazarchilik) – Mahalliy bozorlardagi savdogarlardan olinadigan to‘lov

Qo‘qon xonligidagi yirik bozorlar, jumladan Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon va Toshkent bozorlari har kuni faoliyat olib borgan. Bozorda rastalar egallagan joyiga qarab har bir savdogar davlatga kunlik yoki haftalik savdo ruxsatnomasi to‘lovini amalga oshirgan. Bozor soliqlari turlicha bo‘lib, tovar turiga qarab 1–5% oralig‘ida bo‘lgan. Qo‘qon xonligi iqtisodiy siyosati xalqaro savdoga asoslanganligi sababli, import va eksport mahsulotlari uchun alohida soliqlar joriy etilgan.

Import soliqlari – chetdan olib kelingan tovarlarning qiymatiga nisbatan 5–15% oralig‘ida belgilangan.

Eksport soliqlari – mahalliy mahsulotlar chetga sotilganida xonlik g‘aznasiga to‘lov qilinishi shart bo‘lgan.

Savdogarlar maxsus ruxsatnomalar orqali eksport va import bilan shug‘ullanganlar.

Qo‘qon xonligida pul muomalasini tartibga solish maqsadida pul ishlatadigan yirik savdogarlardan ham soliq undirilgan. Bu soliq yirik tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi savdogarlar uchun amal qilgan. Pul ayirboshlash shoxobchalari orqali tilla va kumush tangalar muomalaga chiqarilganida davlat o‘z ulushini olgan.

Qo‘qon xonligi o‘zining iqtisodiy qudratini asosan savdogarlardan tushgan soliqlar orqali mustahkamlagan. Xalqaro savdo orqali davlat daromadining 50–60% qismi shakllangan. Bojxona va import soliqlari davlat byudjetining 20–30% qismini tashkil qilgan. Ichki savdo va bozor soliqlari davlat g‘aznasining 10–15% ini to‘ldirgan. Savdo tarmoqlarining kengayishi natijasida Qo‘qon xonligi o‘z iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolgan va savdogarlar uchun ancha qulay shart-sharoitlar yaratgan. Shu sababli, Qo‘qon bozorlari va karvon yo‘llari Markaziy Osiyoning eng yirik savdo markazlariga aylangan.

Qo‘qon xonligida savdogarlardan yiliga davlatga tushgan daromad

Qo‘qon xonligi iqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyodagi eng rivojlangan davlatlardan biri bo‘lib, uning davlat g‘aznasiga tushgan daromadning katta qismi savdogarlardan undirilgan soliqlar va bojxona to‘lovlari orqali shakllangan. Savdogarlardan yiliga qancha daromad tushgani haqida aniq ma‘lumotlar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, tarixiy manbalar asosida taxminiy hisob-kitoblar qilish mumkin. Qo‘qon xonligi davlat g‘aznasiga savdogarlardan tushgan daromad bir necha asosiy manbalar orqali shakllangan:

1. Bojxona va xalqaro savdo soliqlari

Qo‘qon xonligi Xitoy, Hindiston, Rossiya va Buxoro kabi davlatlar bilan faol savdo olib borgan. Xorijdan kelgan tovarlardan 5–10% miqdorida bojxona to‘lovlari olinib, bu davlat g‘aznasining 20–30% qismini tashkil qilgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, yirik savdo yillarida bojxona va xalqaro savdodan tushgan daromad 100 000–150 000 tilla tanga atrofida bo‘lgan.

2. Ichki savdo va bozor soliqlari

Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Toshkent va boshqa shaharlarning yirik bozorlari davlat uchun katta daromad manbai bo‘lgan. Har bir savdogar bozor



solliqlari, rastalar uchun ijara haqi va boshqa to‘lovlarni amalga oshirgan. Ichki savdo solliqlari orqali davlat yiliga 50 000–80 000 tilla tanga miqdorida daromad olgan.

3. Karvon yo‘llaridan tushgan daromadlar

Qo‘qon xonligi orqali o‘tgan savdo karvonlari harakatlanish huquqi uchun maxsus solliqlarni to‘lashgan. Karvon harakati va boj to‘lovlaridan davlatga 30 000–50 000 tilla tanga atrofida daromad tushgan. Xususan, Qo‘qon – Toshkent – Buxoro – Xiva yo‘nalishida har yili minglab savdogarlar harakatlangan.

4. Eksport va import solliqlari

Qo‘qon xonligi Xitoy va Hindistonga ipak, gilam, paxta, qurol-yarog‘ va boshqa mahsulotlarni eksport qilgan. Har bir eksport qilingan mahsulotdan 5–15% soliq olingan. Yiliga eksport va import solliqlari orqali 40 000–70 000 tilla tanga tushgan.

5. Tanga muomalasi va pul solig‘i

Pul ayirboshlash markazlari va zarbxonalarda chiqarilgan yangi tangalardan davlat o‘z ulushini olgan. Xalqaro savdoda Rossiya rubli va Xitoy tangalarining kirib kelishi bilan ba‘zi solliqlar shu valyutalarda ham undirilgan. Pul muomalasidan yiliga 20 000–40 000 tilla tanga tushgan[4,29-31].

Qo‘qon xonligining umumiy daromadi

Savdogarlardan tushadigan yillik daromad miqdori xonlik iqtisodiyotining barqarorligiga bevosita ta‘sir qilgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra:

Bojxona va xalqaro savdo solliqlari: 100 000–150 000 tilla tanga

Ichki savdo va bozor solliqlari: 50 000–80 000 tilla tanga

Karvon yo‘llari va tranzit bojxona daromadi: 30 000–50 000 tilla tanga

Eksport va import solliqlari: 40 000–70 000 tilla tanga

Pul muomalasi va moliyaviy operatsiyalar: 20 000–40 000 tilla tanga

Umumiy hisobda, Qo‘qon xonligida savdogarlardan yiliga taxminan 240 000–390 000 tilla tanga daromad tushgan. Bu daromadlar Qo‘qon xonligining davlat harajatlarini moliyalashtirish, armiyani saqlash va infratuzilmalarni rivojlantirish uchun ishlatilgan.

Savdogarlardan keladigan soliq va bojxona daromadlari davlat byudjetining 50–60% ini tashkil qilgan. Qo‘qon xonligining umumiy harbiy harajatlari va davlat xarajatlari yiliga 500 000 tilla tanga atrofida bo‘lgan, shuning yarimidan ko‘pi savdogarlardan tushgan solliqlar hisobidan qoplangan. Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyoning eng yirik iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, uning savdo va pul tizimi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo‘lgan. Xonlikning strategik joylashuvi xalqaro savdoni rivojlantirishga imkon bergan bo‘lsa, ichki bozorlarda hunarmandchilik va dehqonchilik mahsulotlarining keng muomalasi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlagan. Qo‘qon xonligi savdogarlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, savdo yo‘llarini himoya qilish, karvonsaroylar va omborxonalar tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarga rag‘bat berish orqali iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlagan.

Xonlikda xalqaro savdodan tushgan solliqlar, bojxona to‘lovlari va ichki bozor solliqlari davlat g‘aznasining asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lib, yillik



tushumning 50–60% qismini tashkil qilgan. Pul tizimi ham doimiy ravishda isloh qilinib, Qo‘qon tangalari muomalaga chiqarilgan. Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya rublining xonlik iqtisodiyotiga kirib kelishi mahalliy pul tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shuningdek, soliqlarning ortishi va davlatning harbiy xarajatlari iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirgan. Shu bilan birga, Qo‘qon xonligining iqtisodiy modelini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, savdo va pul tizimi o‘z davrida barqaror bo‘lib, davlat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda Qo‘qonning savdo va moliya tizimi tarixiy meros sifatida o‘rganilib, zamonaviy iqtisodiy modellar bilan taqqoslanmoqda. Qo‘qon xonligining tajribasi, ayniqsa xalqaro savdoni tashkil etish va moliya tizimini rivojlantirish borasida, bugungi iqtisodiy taraqqiyot uchun qimmatli saboqlar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, R.. O‘zbekiston tarixi: iqtisodiy jihatlar. Toshkent: Fan. (2005)
2. Alimov, U.. Qo‘qon xonligida pul tizimi va soliq islohotlari. Toshkent: Ilmiy Meros. (2019)
3. Bekmurodov, I. (2018). Qo‘qon xonligi va Rossiya iqtisodiy munosabatlari. Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Bregel, Y.. Central Asia: An Historical Overview. Bloomington: Indiana University Press. (1999)
5. Holbekov, M. Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalari va savdo yo‘llari. Samarqand: Ilmiy Nashr. (2015).
6. Madrahimov, T. O‘rta Osiyoda bozor iqtisodiyoti shakllanishi: Qo‘qon misolida. Toshkent: Yangi Asr Avlodi. (2013)
7. Niyozov, S. Qo‘qon xonligi iqtisodiy tarixi. Toshkent: Sharq nashriyoti. (2010).
8. Qodirov, A. Markaziy Osiyodagi savdo yo‘llari va ularning iqtisodiy ta‘siri. Buxoro: Iqtisodiyot va Tarix. (2016).
9. Ross, E. The Silk Roads: A New History of the World. London: HarperCollins. (2007).
10. Vamberi, A. Travels in Central Asia. London: John Murray (1873) .
11. https://daryo.uz/yoqolgan-manaviy-meros-qoqon-xonligi-saroy-kutubxonasi-tarixidan?utm_source=chatgpt.com/2021/02/23
12. https://daryo.uz/ozbek-davlatchiligiga-berilgan-kuchli-zarba-qoqon-xonligining-tugatilganiga-145-yil-toldi?utm_source=chatgpt.com/2021/03/05.
13. https://www.researchgate.net/publication/Iqtisodiyot_nazariyasi_I_tom_darslik/373797614.



II JAHON URUSHIDAN KEYIN DUNYO MAMLAKATLARI

Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o'g'li
University of Business and Science oliy ta'lim muassasasi
tarix yo'nalishi 1-kurs M.T.X-24-01 guruh magistranti
[*nodirbekeraliyev07@gmail.com*](mailto:nodirbekeraliyev07@gmail.com)

Annotatsiya: Jahon tarixi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish, yangi zamon davrida dunyo mamlakatlarining diplomatiyasi va tashqi siyosati borasidagi talabalarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham jahon tarixi fanining beqiyos ahamiyatini tan olish kerak. Ushbu maqolada II jahon urushidan keying dunyo mamlakatlari, hamda dunyodagi siyosiy vaziyat haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: SSSR, AQSH, sovuq urush, SQCH-1, Yaponiya, BMT, Nato, Varshava shartnomasi.

COUNTRIES OF THE WORLD AFTER WORLD WAR II

Annotation: Having in-depth knowledge of world history is important as the most effective tool for broadening the worldview of students in the new era regarding diplomacy and foreign policy of world countries. In addition, it is necessary to recognize the incomparable importance of world history in order to understand the level of development of the countries with which our country cooperates, the mentality, traditions, and culture of the peoples. This article will discuss the countries of the world after World War II, as well as the political situation in the world.

Keywords: USSR, USA, Cold War, USSR-1, Japan, UN, NATO, Warsaw Pact.

СТРАНЫ МИРА ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация: Глубокие знания всемирной истории важны как наиболее эффективный инструмент расширения мировоззрения учащихся в новую эпоху в отношении дипломатии и внешней политики стран мира. Кроме того, необходимо осознать непревзойденное значение всемирной истории для понимания уровня развития стран, с которыми сотрудничает наша страна, менталитета, традиций и культуры народов. В данной статье будут рассмотрены страны мира после Второй мировой войны, а также политическая ситуация в мире.

Ключевые слова: СССР, США, холодная война, СССР-1, Япония, ООН, НАТО, Варшавский договор.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli urush aql bovar qilmas voqealar bilan ham tarixda qolgan. Ikkinchi jahon urushida o'sha davrda mustaqil bo'lgan 73 ta davlatdan 62 tasi ishtirok etgan va bu jarayon yer aholisining 80 foizini qamrab olgan. Urushga aralashmay qolgan 11 ta davlat ham u yoki bu jihatdan qaysidir



tarafga yon bosishga majbur bo'ldi. Jangovar harakatlar 40 ta davlat, uch qit'a va to'rt okeanda olib borilgan. 110 million qurolli askar ishtirok etgan bu urushda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 60 million kishi qurbon bo'lgan. Shu bois ham bu urush chin ma'noda haqiqiy Jahon urushiga aylanib ketgani e'tirof etiladi. Ushbu urush Rasman tugagagn sana 1945 yil 2 sentyabrda Yaponiya taslim bolishi bilan tugadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo siyosatida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. BMTning roli ancha kuchaydi. Ilgari kelishilgan ba'zi qarorlar amalga oshdi, ba'zilari esa amalga oshmasdan qoldi.

1945-yilda AQSH atom bombasini Yaponiyada sinab ko'rdi va bu mudhish qurol vositasida dunyoga hukmronlik qilishni o'ylay boshladi. Qo'shma Shtatlarda atom bombasi yaratilgandan keyin, SSSR ham AQSH dan orqada qolmaslik uchun barcha choralarni ko'rdi. Nihoyat, 1949-yilda atom bombasini yaratdi va uni sinovdan o'tkazdi [4].

Keyingi yillarda G'arbiy davlatlar AQSh boshchiligida Sovet Ittifoqiga nisbatan bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Bu tadbirlar orasida dunyo miqyosida “kommunizmga qarshi salib yurishi”ni e'lon qilgan “Trumen doktrinasini”ning (1947-yil) qabul qilinishini, amerikacha siyosatni qo'llab-quvvatlashga zamin yaratgan “Marshall rejasi” (1948– 1952-yillar)ga ko'ra, bir qator G'arbiy Yevropa davlatlariga investitsion yordam dasturini, 1949-yilda Atlantika harbiy-siyosiy bloki – NATOning tashkil etilishi, shuningdek, Osiyoda ham SEATO, SENTO, ANZYUS kabi amerikaparast bloklarning tashkil etilganligini ko'rsatib o'tish kerak.

AQSH 1952-yilda yanada dahshatliroq ommaviy qurg'in quroli —vodorod bombani yaratdi. Uning qudrati 10 mln **tonna trotilga** teng edi [2]. SSSR esa bir yildan keyinroq bunday qurolga ega bo'ldi. Bu orada AQSH yadro qurollarini nishonga yetkaza oladigan samolyotlar yaratdi. SSSR esa qit'alararo raketa yaratishga muvaffaq bo'ldi. Atom suv osti kemalari yaratildi. Shu tariqa kishilik jamiyatini bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir ommaviy qirg'in qurollari zaxirasi vujudga keltirildi. aLekin oradan ko'p o'tmay «sovuq urush» boshlandi. Uning tashabbuskori U. Cherchill edi. U 1946-yil 5-martdagi Fulton (AQSh)dagi nutqida kapitalistik mamlakatlarga kommunizmni eksport qilish rejalari va SSSRga qarshi kurashish uchun anglo-amerika ittifoqini tuzishga chaqirdi. U «sharqiy kommunizm» bilan kurash vazifasini qo'ydi.

Ikki eng buyuk davlat o'rtasida munosabatlarning tobora keskinlashib borishi oqibatida ikki harbiysiyosiy ittifoq vujudga keldi. Ularning birinchisi AQSH va uning ittifoqchilarini birlashtirgan Shimoliy Atlantika shartnomasi — NATO deb ataldi. Bu ittifoq 1949-yilning 4-aprelida Vashington shahrida 12 davlat ishtirokida tuzildi (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Belgiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya). AQSH generali Duard Devid Eyzenxauer uning qo'mondoni etib tayinlangan.

1949-yilning 1-oktabrida kommunistik Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi, 1950-yilda esa SSSR bilan Xitoy o'rtasida «Do'stlik, ittifoqlik va o'zaro yordam to'g'risida» shartnoma imzolanishi AQSHni qattiq tashvishga solib qo'ydi. XXRning tashkil topishi bilan «**jahon sotsializm tizimi**» shakllanishi nihoyasiga



yetdi. 1955-yilda GFR NATOga a'zo etib qabul qilindi. Hozirgi davrda NATO ga Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Turkiya, Chexiya, Estoniya kabi davlatlar a'zodirlar. Sharqiy Yevropa davlatlari (SSSR, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR) **1955-yilning** 14-mayida o'zlarining harbiy-siyosiy ittifoqi — **Varshava shartnomasi** tashkilotini tuzdilar. Shunday qilib, dunyo, shu jumladan, Yevropa ikkiga bo'lindi [3].

50-yillarning ikkinchi yarmida SSSR turli tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashashi mumkinligi g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyaning puch emasligini isbotlash maqsadida o'z armiyasining sonini 2 mln kishiga qisqartirdi va SSSR — AQSH rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Va, nihoyat, 1960-yilning may oyida SSSR rahbari N. S. Xrushyov va AQSH prezidenti D. Eyzenxauerning uchrashuvi o'tkazilishiga kelishildi. Biroq bu uchrashuv amalga oshmay qoldi. Bunga AQSH 1-may kuni SSSR hududiga josus samolyoti uchirishi sabab bo'ldi. Josus samolyot Sverdlovsk osmonida urib tushirildi. Uchuvchi G. Pauers tiriklayin asir olindi. AQSH ig'vogarligi fosh bo'ldi.

1961-yilda SSSR va AQSH munosabatlarini nihoyatda keskinlashtirib yuborgan voqea sodir bo'ldi. Bu Berlin devorining qurilishi voqeasi edi. Devor Sharqiy Berlinni G'arbiy Berlindan ajratib tashladi. Tez orada dunyoni yadro urushi halokati yoqasiga olib kelib qo'ygan voqea ham sodir bo'ldi. Bu voqea tarixga Karib inqirozi» nomi bilan kirgan. Bu inqiroz qay tariqa yuz berdi? 1959-yilning yanvar oyida Kubada amerikaparast hukumat ag'darildi. Hokimiyat tepasiga F. Kastro boshchiligidagi vatanparvar kuchlar kelishdi. F. Kastro Kubada sotsializm qurilishini e'lon qildi. Tabiiyki, AQSH shundaygina biqinida Kubaga o'xshash sotsialistik davlatning vujudga kelishiga toqat qila olmas edi. SSSR rahbariyati esa Kuba inqilobini sotsializmning butun dunyo bo'ylab tarqalishi, deb baholadi. Shuning uchun ham **Kubani** qo'llab-quvvatladi.

1961-yilning aprel oyida AQSH Kubaga qarshi emigrantlar isyonini uyushtirdi. Bu Karib inqirozini keltirib chiqardi. Kuba rahbari F. Kastro yordam so'rab SSSR ga murojaat qildi. SSSR rahbariyati yashirin ravishda Kuba hududiga o'rtacha olislikka uchadigan va atom bombasi bilan ta'minlangan raketalarni joylashtirdi. Bundan xabar topgan AQSH ma'muriyati Kubaga nisbatan dengiz qamalini uyushtirdi. Dunyo yadro urushi yoqasiga kelib qoldi [2].

N. S. Xrushyov va AQSH prezidenti J. Kennedi 1962-yilning 28-oktabrida oxir-oqibatda o'zaro kelishuvga erishdilar. Unga ko'ra, SSSR Kubadan o'z raketalarini olib chiqdi. AQSH esa Kubaga bostirib kirmaslikka so'z berdi hamda Turkiyadan raketalarini olib chiqib ketdi.

1970-yil 12-avgustda SSSR — GFR, GFR — Chexoslovakiya, Polsha — GFR o'rtasida imzolangan shartnomalar Yevropada tinchlikni mustahkamlash ishiga beqiyos katta hissa qo'shdi. Shartnomaga ko'ra, GFR Ikkinchi jahon urushi natijasida Yevropada tarkib topgan chegaralarning buzilmasligini tan oldi. Ayni paytda GFR va GDR o'rtasida o'zaro munosabatlar asosi haqidagi shartnoma ham imzolandi. Bu bilan har ikki nemis davlati bir-birini tan oldilar. 1972—1974-yillarda oliy darajada o'tkazilgan sovet-amerika muzokaralari natijasida SSSR va AQSH



o‘rtasida yadro qurolini tarqatmaslik, yadro quroli sinovlarini to‘xtatish to‘g‘risida shartnoma va **STRATEGIK QUROLLARNI CHEKLASH** to‘g‘risida muvaqqat bitim (SQCH-1) imzolandi. Xalqaro munosabatlardagi bunday o‘zgarishlar Yevropa qit‘asida xavfsizlik va davlatlararo hamkorlik uchun qulay sharoit yaratdi. 1975-yilning 30- iyul — 1-avgust kunlari Xelsinki (Finlyandiya) shahrida 35 davlat (shu jumladan, AQSH va Kanada) rahbarlari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengash o‘tkazdilar. 1-avgust kuni kengashning Yakunlovchi akti imzolandi. Uni imzolagan 35 davlat rahbarlari o‘z davlatlari tashqi siyosatda quyidagi tamoyillarga amal qilishini tan oldilar:

— davlatlarning suveren tengligi, huquqlarni va o‘zgalar suverenitetini hurmat qilish;

— kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik;

— chegaralar buzilmasligi;

— davlatlarning hududiy birligi;

— nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

— ichki ishlarga aralashmaslik;

— inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini hurmatlash;

— teng huquqlilik va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zlari hal etishi;

— davlatlararo hamkorlik;

— xalqaro huquqlar bo‘yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

1979-yilda SQCH-2 shartnomasi imzolandi. Biroq yuqorida qayd etilganlardan xalqaro keskinlikning yumshashi yillarida xalqaro hayot faqat silliq yo‘ldan ketgan ekan-da, degan xulosa chiqmasligi zarur. Bu yillar (70-yillar) da ham dunyo mintaqaviy siyosiy mojarolardan, urushlardan xoli bo‘lmagan.

Sovet davlati rahbariyati 80-yillarning ikkinchiyarmida qurollanish poygasining yangi bosqichiga mamlakat iqtisodiyoti bardosh bera olmasligini anglab yetdi. Shuning uchun SSSR rahbariyati tashqi siyosat yo‘nalishini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. 1985-yilda SSSR rahbari M. S. Gorbachyov SSSRning kollektiv xavfsizlik tamoyillariga tarafdorligini va xalqlarning taraqqiyot yo‘lini tanlashda suveren huquqlarini hurmat qilishini e‘lon qildi. Tashqi siyosatdagi bu o‘zgarish «yangi siyosiy tafakkur» iborasida o‘z ifodasini topdi. SSSR rahbariyati tezda gapdan amaliy ishga o‘tdi. 1985—1988-yillar oralig‘ida 4 marta oliy darajada sovet-amerika uchrashuvi o‘tkazildi. 1987-yilda SSSR va AQSH o‘rtasida o‘rtacha va qisqa olislikka uchadigan raketalarni tugatish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 1989-yilda SSSR Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqib ketdi. Shu yili M. S. Gorbachyovning Xitoyga safari uyushtirildi. Buning natijasida sovet-xitoy munosabatlarini yaxshilashga asos solindi. SSSR tashqi siyosatida ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar 1989-yilda Sharqiy Yevropa (SSSR ittifoqchilari) davlatlarida ro‘y bergan inqiloblar tufayli jiddiy sinovdan o‘tdi. SSSR bu inqiloblarni bostirishga harakat qilmadi [5].

Kechagi ittifoqchilar SSSR vasiyligidan qutuldilar. SSSR, hatto, 1990-yilning 3-oktabrida ikki nemis davlatining birlashishiga ham to‘sqinlik qilmadi. Aksincha, Germaniya birlashgandan so‘ng 1990-yilning 9-noyabrida SSSR va GFR o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik, sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma



imzolandi. SSSR Sharqiy Yevropadan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib keta boshladi. AQSH va uning ittifoqchilari 1991-yili Iroqning o‘zboshimchaligiga qarshi harbiy kuch ishlatganida SSSR o‘z ittifoqchisi Iroqni qo‘llab quvvatlamadi. 1990-yilning noyabrida Parijda Yevropada oddiy qurol-yarog‘ va qurolli kuchlar sonini qisqartirish to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi qatnashchilari bo‘lgan davlatlar Yevropa uchun Parij Xartiyasini qabul qildilar. Unda davlatlararo munosabatlarning Xelsinki tamoyillari tasdiqlandi. Shu tariqa «sovuq urush» barham topa bordi. 1991-yilda SSSRning qulashi bilan «sovuq urush» tugadi. Lekin AQSH — Rossiya ziddiyatlari davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Кичкилов Х., Файзуллаева М. Энг янги тарих (1945–2010 йиллар). – Тошкент: ЯНГИ НАШР, 2011.
2. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (Энг янги давр 1945–2017 йиллар). Тошкент. “O‘zbekiston”, 2019.
3. Нуриддинов З. Фарб мамлакатларининг энг янги тарихи (1939–1971). – Тошкент, 1976.
4. Эргашев Ш., Бобоматов Т. XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: O‘zbekiston, 2016.
5. Lafasov M. Jahon tarixi. – Toshkent, 2015.
6. Новейшая история стран Европы и Америки XX век. Часть 2. – М., 2001.

IBROHIMBEK QO‘RBOSHINING ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI

Kamolov Diyorbek Jamoldin o‘g‘li

University of Business and Science

Tarix yo‘nalishi 1-kurs M.T.X-24-01 guruh magistranti

kamolovdiyorbek02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz Ibrohimbek Qo‘rboshining hayoti, rus armiyasiga qarshi harbiy harakatlari va uning ko‘rsatgan jasoratlari o‘sha davr tuzumi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ibrohimbek qo‘rboshi, Laqay. Qizil armiya, Sharq Napoleoni. Buxoro, Afg‘oniston, chekist, Dushanbe, amir Said Olimxon, Toshkent.

INDEPENDENCE MOVEMENT OF IBRAHIMBEK QORBASHI

Annotation: This article will tell you about the life of Ibrahimbek Qorbash, his military actions against the Russian army and the bravery he showed against the regime of that time.

Keywords: Ibrahimbek Qorbash, Lakai. Red Army, Napoleon of the East. Bukhara, Afghanistan, Chekist, Dushanbe, Emir Said Olimkhan, Tashkent.



ДВИЖЕНИЕ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ ИБРАГИМБЕКА КОРБАШИ

Аннотация: В статье рассказывается о жизни Ибрагимбека Корбаша, его боевых действиях против русской армии и проявленной им храбрости в борьбе с правящим режимом.

Ключевые слова: Ибрагимбек Корбаш, Лакай. Красная Армия, Наполеон Востока. Бухара, Афганистан, чекист, Душанбе, Эмир Саид Олимхан, Ташкент.

Mulla Muhammad Ibrohimbek 1889-yilda Dushanbe yaqinidagi Ko'ktosh qishlog'ida, o'zbek laqaylari urug'ining esonxo'ja shaxobchasiga mansub amir amaldori Chaqaboy to'qsabo xonadonida tug'ildi. Ibrohimbek o'g'illarning eng kichigi edi. U bir yarim yil maktabda o'qidi, lekin o'zining tan olishicha, yozishni bilmagan. Ba'zi manbalar uni ot o'g'risi yoki hatto qaroqchilar to'dasining rahbari deb atashadi. Shuningdek, uning amirlik martabasiga ega bo'lganligi va soliq yig'ish bilan shug'ullanganligi haqida ham ma'lumotlar bor, shuning uchun uni amir amaldori deb hisoblash mumkin. Istiqloqlilik yurishlari yillarida Buxoro amirini qo'llab-quvvatlagan. Ibrohimbek 1919 yilda Hisor begi huzurida qo'lgan xizmatlari evaziga qorovulbegi darajasiga, keyinchalik Buxoro amiri tomonidan mir devonbegi, to'pchiboshi, lashkarboshi lavozimiga ko'tarilgan. Ibrohimbek 1920-yil sentyabrda amirlik tuzumi ag'darilgach, Sharqiy Buxorodagi qo'rboshi dastalariga rahbarlik qildi. Buxorodagi qo'rboshilar orasida Ibrohimbek Laqay alohida salmoqqa ega edi [1].

Ibrohimbek 1920 yil sentyabrda amirlik tuzumi ag'darilgach, Sharqiy Buxorodagi qo'rboshilarga rahbarlik qildi, bosqinchi qizil askarlar va sovet tuzumiga qarshi kurash olib bordi. U o'z oldiga Buxoro tuprog'ini qizil askarlardan tozalab, ag'darib tashlangan amirlik tuzumini qayta tiklash va saltanatni sobiq amir Said Olimxon qo'liga olib berishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Shuning uchun ham u kurashga kirgan dastlabki kunlardan o'q sobiq Buxoro amiri tomonidan moddiy va ma'anaviy jihatdan har tomontama qo'llab-quvvatlandi.

1921-yil sentyabrda bo'lgan Buxoro qo'rboshilarining qurultoyida “Islom lashkarboshisi” degan unvonga sazovor biladi. “Ibrohimbek - butun Sharqiy Buxorodagi markaziy siymo”, deb tan olinadi. U qisqa vaqt ichida 10 000 dan ortiq askarni yig'ib, Hisor, Ko'lob, Baljuvon, Qorategin va Darvoz hududlarini sovet hukumatining nazoratidan ozod etadi. Amir Said Olimxon Ibrohimbekka yozgan maktublaridan birida uni “sadoqatli va jasur dohiy, mulla, bek, biy, devonbegi, lashkarboshi, tipchiboshi, g'oziy”, deb ulug'laydi. Amirning yozishicha, u Ibrohimbekka qishimcha kuchlar yuborish uchun Afg'oniston hukumati bilan muzoqoralar olib borgan. Lekin bu davrda Afg'oniston hukumati bilan RSFSR o'rtasida munosabat yaxshi bo'lganligi sababli Buxoro amiri ixtiyoriga hech qanday harbiy kuch berilmaydi. Amirning Ibrohimbekka nisbatan ko'rsatgan marhamatlari haqida turkiyalik tadqiqotchi olim Ali Bodomchi izining kitobida yozishicha, Ibrohimbek amir Olimxonning ko'p martabalariga erishgan, shuningdek, amir Sharqiy Buxoroda yashagan muddat ichida Ibrohimbekka o'xshash yovqur, qirqmas



kishilarga tayanib, sovetlarga qarshi jang qilgan. Kitobda aytilishicha, “Laqay Ibrohimbek so’nggi Turkiston milliy istiqlol kurashining yorqin siymolaridandir.

Amir zamonlaridayoq o’rus harbiylariga qirg’in solishdan ish boshlagan va qisqa fursatda katta shuxrat qozongan. Umumiy askarlarining soni sakkiz mingdan ziyodroq bo’lgan”. Ibrohimbek qo’rboshi o’z qo’shini safida qattiq tartib-intizom o’rnatgan edi. Tinch aholini talashda qatnashgan yoki begunoh musulmonlarni o’ldirgan askarlar o’z aybi ma’lum bo’lgandan so’ng ularni shafqatsiz jazolardi. Ibrohimbekning o’z qo’l ostidagi qo’rboshilari Abdulaziz va Abdurahmonboyga yozgan maktublari bu jihatdan ahamiyatlidir. Ibrohimbek Abdurahmonboyga “Siz askarlarni qishloqlarga maxsus ruxsatnomasiz miltiqlari bilan jo’natyapsiz bu juda yomon”, deb yozgan edi. Demak, qo’rboshilar o’z yigitlarini qishloqlarga miltiqlari bilan yuborishsa, ularga maxsus ruxsatnoma berishgan, yoki quolsiz yuborishgan. Ibrohimbek qo’l ostidagi Sharqiy Buxoro hududida o’zining boshqaruv usulini amalga oshiradi. Joylardagi yangi Buxoro hukumati tugatilib, uning o’rniga va amirlik davridagi boshqaruv usuli joriy qilingan. Ibrohimbekni bu erdagi maxalliy aholi, xususan, laqaylar qo’llab-quvvatlashardi. Bundan Turkistonda ish olib borayotgan markaziy hukumat vakillari qattiq tashvishga tushdilar. Shuning uchun ham Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi tomondan tuzilgan josuslik axborotlaridan birida Ibrohimbek faoliyati har jixatdan taxlil qilinadi, aholi o’rtasida uning nufuzi oshib borayotganligidan cho’chish xolati ko’zga tashlanadi va Ibrohimbek bilan boshqa qo’rboshi guruhlar o’rtasida nizo chiqarish uchun tavsiyalar beriladi [2].

Ibrohimbek 1922-yilda Dushanbeda bosqinchilarga qarshi kurashlarda faol ishtirok etadi. 1923-yili Ibrohimbekning qo’lida 47 ta qo’rboshi tarkibida jami 20 000 askar bo’lgan. 1925-yilda Sherobod, Boysun va Surxon vohasida sovetlarga qarshi muvaffaqiyatli harbiy harakatlar bo’lib o’tdi. 1925-1926 yillarda u hozirgi Tojikiston va O’zbekistonning tog’li viloyatlarida kurash olib boradi. 1926-yil 21-iyunda keskin janglardan so’ng Afg’oniston hududiga o’tib ketishga majbur bo’ladi. 1926-1929-yillarda Qobul yaqinidagi Qal’ai Fotuda sobiq amir Said Olimxonning qarorgohida yashaydi. Biroq Ibrohimbek boshchiligidagi buxorolik muhojirlar Afg’onistondagi siyosiy kurashga tortilib, harbiy mojarolarda qatnashishga majbur bo’lishadi (1928—1929). Ibrohimbek uzoq tayyorgarlikdan so’ng, 1931-yil 30-martda Ibrohimbek 1,500 kishilik qo’shin bilan SSSR chegarasidan o’tib, Tojikiston SSR hududiga kiradi. Aprel–iyun oylarida sho’ro qo’shinlari bilan shiddatli janglar bo’lib o’tdi, 12-iyunda Oqbosh tog’ida so’nggi jangda mag’lub bo’lib, yaralanadi. So’ng Ibrohimbek 1931-yil 23-iyunda chekistlar tomonidan Bobotog’da qo’lga olinadi va Toshkentga olib kelinadi. U 1932-yil 31-avgustda Toshkentda qatl qilinadi [3].

Ibrohimbek zamondoshlarga har tomonlama o’rnak bo’la oldi. Undan hozirgi kunda avlodlari faxrlansa arziydigan xoti qoldi. Sovet davrida Ibrohimbek “bosmachi” sifatida salbiy e’tirof etilgan bo’lsa, mustaqillik yillarida u milliy tarixda jasur ozodlik kurashi simvoli sifatida qayta baholandi. U “Sharq Napoleoni” yoki “Laqaylik Robin Gud” nomlari bilan ataldi. 2022-yilda professor Qahramon Rajabovning “Ibrohimbek qo’rboshi” nomli monografiyasi nashr etildi. Unda arxiv hujjatlari, zamondosh xotiralari, xalq qo’shiqlari tahlil qilingan holatda yoritiladi .



Keyinchalik u Oliy sud tomonidan u oqlanganligi ham qayd etilgan. Laqaydan so'ng yana ozroq bo'lsada istiqloлчаilik harakatlari davom etdi. Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy istiqloлча, erk va ozodlik uchun kurashi 16 yil davom etti. Sho'ro qirg'inlari tufayli 1935-yilga kelib mamlakatimiz jasur vatanparvarlarining qarshiligi sindiildi. Natijada Sovet hukumati Turkistonni bosib olib o'z mustamlakachilik tartib-qoidalarini o'rnatdilar. Ushbu maglubiyatlardan so'ng, Turkiston Sho'ro Respublikasi XAlq Komissarlar kengashi raisi Abdulla Rahimboyevning fikrlari bilan maqolamni yakunlayman. A. Rahimboyev: “Rusiya bosmachilik harakatini 1935-yida o'rtadan yo'q qildi, ammo bundan Turkiston o'lkasi xalqlarining Sho'ro istibdodiga qarshi milliy istiqloлча, erk va ozodlik uchun kurashlari 1935-yilda barham topdi degan xulosa chiqmaydi, Milliy mustaqillikka, erk va ozodlikka an'anaviy tashna bo'lgan xalqimiz keyinchalik ham bosqinchi sho'ro saltanatiga qarshi bir daqiqa bo'lsa ham to'xtamadilar, bu kurash 1991-yil avgustga qadar goh oshkora goh pinxona sur'atda davom etti” [10].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahramon Rajabov - Ibrohimbek qo'rboshi, 2022.
2. A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurish tajribasi. -T.: Ma'naviyat. 2000.
3. A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. -T.: Ma'naviyat, 2000.
4. Bobobekov X., Rahimov J., Sodiqov H. O'zbekiston tarixi. -T.: 1994.
5. Validiy A.Z. Bo'lingannni bo'ri er. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. -T.: Adolat. 1997.
6. Ziyoeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati. -T.: G'G'ulom nashriyoti, 2000.89
7. Mustafo CHo'qay o'g'li. Istiqloлча jallodlari (1917 yil xotiralari). -T.: G'ulom nashriyoti, 1992.
8. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalar. -T.: O'zbekiston. 2000.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: Universitet, 2002.
10. Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich - Istiqloлчаilik harakati tarixi, 2008.

MUSTAQILLIK YILLARIDA AMIR TEMUR TARIXINI O'RGANISHGA BO'LGAN E'TIBOR

Nabijonov Umidjon Abdug'ani o'g'li
University of Business and Science
Tarix yo'nalishi talabasi
umidjonkak@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temurning davri tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor va u tomonidan yozilgan Temur tuzuklarining bugungi kunda O'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi hamda davlat boshqaruvi jarayonida Temur tuzuklarining ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.



Kalit soʻzlar: Amir Temur, Temur Tuzuklari, B. Ahmedov, A. Oʻrinboyev, D. Yusupova, N. Ahmedov, U. Uvatov, O. Boʻriyev, B. Mannonov, A. Ziyo va Sh. Oʻljayeva, Temuriylar tarixi davlat muzeyi.

ВНИМАНИЕ К ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматривается внимание, уделяемое изучению истории эпохи нашего великого предка Сахибкирана Амира Темура и изучению написанных им "Уложений Темура" узбекскими учеными сегодня, а также значение "Уложений Темура" в процессе государственного управления.

Ключевые слова: Амир Темура, Уложения Темура, Б. Ахмедов, А. Уринбоев, Д. Юсупова, Н. Ахмедов, У. Уватов, О. Буриев, Б. Маннонов, А. Зиё и Ш. Улжаева, Государственный музей истории Темуридов.

ATTENTION TO THE STUDY OF THE HISTORY OF AMIR TEMUR IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation: This article provides information about the attention paid to the study of the history of the era of our great ancestor Sahibkiran Amir Timur and the study of Timur's decrees by Uzbek scholars today, as well as the significance of Timur's decrees in the process of state governance.

Keywords: Amir Timur, Timur's Code, B. Ahmedov, A. O'rinboyev, D. Yusupova, N. Ahmedov, U. Uvatov, O. Bo'riyev, B. Mannonov, A. Ziyo, and Sh. Uljayeva, State Museum of Timurid History.

O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, vatanimiz tarixini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga kelgan. Sal kam bir yarim asr davom etgan, dastlab rus podshosi, so'ngra bolsheviklar o'rnatgan sho'ro saltanatining mustamlakachiligidan ozod bo'lish katta tarixiy voqea bo'lgan.

O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug' allomalarining mamlakat qolaversa jahon tarixida tutgan o'rni va xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi. Biz tutgan bu yo'l Ahmad Yassaviy, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Qubro, Ahmad Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Navoiy va boshqa allomalarimizning ilmiy meroslarini va tavallud topgan sanalarini nishonlashda o'z isbotini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilg'or va yetakchi davlatlari qatorida bo'lishini ta'minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan-O'zbekiston manfaatlarini har jihatdan, masalan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa, Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy,



diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi kerak. Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan va madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o'rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'tmishni bilish hozirgi kunni to'g'ri anglash taqozosidir. Shuning uchun ham O'zbekistonning har bir vatanparvar va milliatparvar fuqarosi Temur va temuriylar davri haqidagi bor haqiqatni o'rganishi lozim. Bu haqida birinchi yurtboshimiz I. A. Karimov shunday degan edi, “Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir”. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib yetishadilar.

Shuningdek, birinchi Prezidentimiz o'z asarlarida aytadilarki: “Kimki O'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”[1.188] deya ta'kidlaganlar. Shu bilan birga buyuk bobomiz Amir Temur “Qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi” degan dono so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr bergan. O'tgan davrdagi qonunchilik faoliyatini tahlil qilib va umumlashtirib, mamlakatda qabul qilingan qonun hujjatlarining quyidagi asosiy turkumlarini ajratib ko'rsatish mumkin: ya'ni, davlatchiligimizni mustahkamlashga va davlat tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatlari. Ular milliy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlashga, mudofaa qobiliyatimizni va xavfsizligimizni mustahkamlashga hokimiyat organlari va boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan qator qonunlar tizimini o'z ichiga oladi [2.211].

Mustaqillik sharofati bilan yuqorida aytilganidek, ko'plab tariximizning o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlar yaxshi yoritilgan. Buning uchun o'zbekistonlik va chet-ellik tarixchi olimlar tomonidan katta izlanishlar amalga oshirilgan. Aynan shunday izlanishlardan Amir Temur shaxsi bilan ham bog'liqdir.

Amir Temur tarixini o'rganishda hozirda ko'plab o'zbek olim va olimalari ilmiy izlanilar olib bormoqdalar. Bulardan B. Ahmedov, A. O'rinboyev, D. Yusupova, N. Ahmedov, U. Uvatov, O. Bo'riyev, B. Mannonov, A. Ziyov va Sh. O'ljayevalardir. Ular Amir Temur tarixini har tomonlama o'rgangan bo'lib, ularni ilmiy asarlarida Amir Temur tomonidan tuzilgan davlat tarixi, davlatdagi ichki va tashqi siyosat, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari va xarbiy harakatlari mukammal yoritilgan.

Masalan H. Dadaboyevning “Amir Temurning harbiy mahorati” kitobida Amir Temur qo'shini haqida shunday deyiladi:

“Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Amir Temur armiyasining Boyazid Yildirimga qarshi yurishida jang oldidan qo'shinni ko'rikdan o'tkazilishi, yaroq-aslahalarning ko'zdan kechirilishi o'ta jonli qilib tasvirlaydi. Farmoni oliyga ko'ra



Bor qo'shin qismlar Sivos dashtida qatorlarini rostlab, ko'rikka tayyor bo'lib turardi. Sohibqiron osmon avjiga yetuvchi zarafshon saropardasi baland bir pushta ustiga o'rnatiladi. Mansur askarlar bo'lim-bo'lim, guruh-guruh, favj-favj bo'lib, daryomisol mavj uradi. Boshidan-oyoq temir sovutga burkangan jangchilar favji Sohibqiron qarshisiga yetganda uning sardori ilgari yurar va tiz chokkan holda Amir Temur sha'niga duo va sinolar aytar edi[3.23]" deb ma'lumot bergan.

T. Fayziyev "Temuriylar shajarasi" kitobida aytadiki, Sohibqiron Amir Temur 1370 yildan 1402 yilgacha Xuroson, Eron, Iroq, Ozarbijon, Gurjiston, Armaniston, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan jang qilib, saltanat hududini sharqda – Xitoy devoriga qadar, shimolda – Moskvaga, g'arbda – O'rta yer dengiziga, janubda esa Misr chegaralariga qadar kengaytirgan. Buning uchun 18 marta jang qilishiga to'g'ri kelgan, deyiladi. Biroq Fasih Xovafiyning "Mujmali Fasihiy" asarida voqiiy qilinsa, "Amir Temur 1370 yildan to umrining oxirigacha 30 martadan ko'proq harbiy yurishlar qilganligi ma'lum bo'ladi[4.13]" deb ma'lumotlar keltirgan.

Tarixchi olim Abdulahad Muxammadjonov Temur va Temuriylar saltanati (Tarixiy ocherk) nomli asarida Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati va Amir Temurning o'z hududida olib borilgan amaliy ishlar hususida fikrlarini berib unga ko'ra, Hofiz Abruning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini yaxshi bilgan. Amaliy jihatdan foyda ketira oladigan har qanaqa bilimni qadrlagan. Amir Temur davlat ishlari uchun hamma narsani foydali tomonlari olishga harakat qilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etish uchun ana shu sohaning bilimdonlari va ulamolar bilan maslahatlashgan. Odatda u tibbiyot, riyoziyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyondalari, shuningdek ilohiyot sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi[5.43].

Amir Temur davlat boshqaruvda kadrlar tayinlash ishlariga jiddiy e'tibor qaratgan. Chunki davlat boshqaruvidagi har bir mansab egasi muayyan malakaga va bilimga ega bo'lishi shart bo'lgan. Amir Temurning harbiy san'ati va davlatni boshqarish tartibiga bag'ishlangan maxsus bitilgan bo'lib, u "Temur tuzuklari" nomi bilan mashhurdir. Tuzuklarda barcha voqealar Amir Temur tili bilan bayon etilgan. Shuning uchun ham bu asarni shaxsan Amir Temurning og'zidan yozib olingan deb yuritiladi. Unga ko'ra davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalar, vazir va qo'shin boshliqlarining saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansab egalarining toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar hususida bayon etadi.

Shuningdek, Amir Temur tarixi va uning faoliyati bilan atroflicha shug'ullangan Nazrulla Ahmedov ham o'z faoliyati davomida "Amir Temur haqida rivoyat va haqiqat" dem nomlangan ilmiy asar yaratib ushbu asarda Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlar haqida ma'lumotlar keltirgan. Nazrulla Ahmedov ushbu asarini ko'plab tarixiy adabiyotlarni o'rganish va ularni taqqoslash orqali yaratgan. Ya'ni Amir Temur harbiy yurishlar davrida Balx, Buxtazamin va Qandahorni o'z tasarrufiga olgandan so'ng Seiston uchun yurish



boshlagan. Amir Temurning Seyistonni egallashi turlicha yoritilgan. Dastlab, Seyiston hokimi amir Malik Mahmudning ahvoli tang holda edi. Uning dushmanlari bosh ko'tarib Seyistondagi yetti qal'ani egallab olishgan va uni qaytarib olish uchun amir Malik Mahmud Amir Temurga sovg'a-salom bilan elchi yuborgan.

Lekin bu holat Amir Temurning “Tarjimai hol” da boshqacha tasvirlanadi. Unga ko'ra amir Malik Mahmud hokimlaridan yengilib, o'z hududidan qochgan va Amir Temurdan yordam so'rab evaziga hududidagi uch qal'ani inom etishni vada qilgan. Amir Temur bunga ko'ngan va tartibsizlikka yo'l qo'ygan hokimni ushlab uni jazolagan va ortga qaytib ketadi hamda jangda Sohibqiron jarohat olgan deb ma'lumot berilgan. Aslida manbalarda voqea tamomila boshqacha yuz bergan. Amir Temur Seyistonning yetti qal'asidan uch qal'asini egallagandan so'ng to'rt qal'adagilar amir Malik Mahmudga habar yuborib ular bo'ysinganligini aytgan va yana maktubda aytadiki “Amir Temur hamma qal'ani egallasa, seni Seyistondan mahrum etadi deb yozilgan edi. Shundan so'ng amir Malik Mahmud Seyiston aholisini Amir Temurga qarshi janga boshlaydi va bu jangda Amir Temur oyog'i va qo'lidan yaralanadi” deb o'z asarida ma'lumot beradi[6.32-33].

Amir Temur tarixini o'rganish va unga bolgan e'tibor mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan bo'lib, Amir Temur xotirasiga bag'ishlab turli kechalar, tadbirlar va xalqaro doiradagi anjumanlar o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan Amir Temur xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ya'ni mamalakatimiz uch shahrida Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o'rnatilgan. Toshkent shahar markazida “Temuriylar” davlat muzeyi tashkil etilgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi” nomli asarida Amir Temurga ko'plab iliq fikrlarni bildirib o'tadilar. Masalan, “Bugun – hayotimizning barcha jabhalarida adolat va haqiqat qaror topayotgan tarixiy bir davrda shu fikrni alohida ta'kidlashni istar edim: Amir Temur- bizning sha'n-shavkatimiz, g'urur-iftixorimizdir. Amir Temur- xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir. Bu kabi cheksiz adolatsizlikdan yosh Temurbekning qanchalar iztirob chekkanini bizning avlodimiz – siz bilan biz ayniqsa chuqur his etamiz. Chunki oradan olti asr o'tib, xuddi shunday ko'rguliklar bizning ham boshimizga tushdi. Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini qovushtira bildi. Istilochilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqloq bayrog'ini baland ko'tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, axloqiy-ma'naviy mezoniga aylandi [7.186]”.

Bugun zo'r shodiyona bilan ochilayotgan temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir. Aytish mumkinki, Amir Temur xiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir. Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening bu so'zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu



muzeyda bizning o‘tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko‘zguda aks etgandek namoyon bo‘ladi.

Kimki O‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamog‘chi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak [8.187].

1996 yil 18 oktyabr Prezidentimiz Islom Karimovning Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so‘zlangan nutqda shunday deydilar, Amir Temurning bashariyat oldidagi o‘lmas xizmatlarini ma‘rifatli jahon munosib baholab kelmoqda. Sohibqiron yubileyining YuNESKO tomonidan xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani ana shu e‘tirofning yorqin dalilidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot mansub bo‘lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirimizda Amir Temur shijoati jo‘sh urayotganini o‘ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixor tuyg‘ulari qamrab oladi. Shodiyona bilan ochilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir. Aytish mumkinki, Amir Temur xiyoboni go‘zal bir uzuk bo‘lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko‘zidir. Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening bu so‘zlarim mubolag‘a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o‘tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko‘zguda aks etgandek namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –Toshkent. 1997. –B. 188.
2. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. –Toshkent. 1998. –B. 211.
3. Dadaboyev X. Amir Temurning harbiy mahorati, -Toshkent. 1996. –B.23.
4. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. –Toshkent. 1995. –B. 13.
5. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. –T., 1997. –B. 43.
6. Ahmedov N. Amir Temur rivoyat va haqiqat. –T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996. –B. 32-33.

JADIDCHILIK HARAKATINI VUJUDGA KELISHI HAMDA UNING MOHIYATI.

Turg‘unboyev Muhammadismoil Yunisali o‘g‘li
University of Business and Science oliy ta‘lim muassasasi
tarix yo‘nalishi 1-kurs M.T.X-24-01 guruh magistranti
turqunboyemuhammadismoil@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O‘rta Osiyo, Kavkaz, O‘rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma‘rifiy tiklanish – jadidchilik harakati haqida, uning paydo bo‘lishi, tarqalishi, hamda ulning g‘oyaviy ahamiyati haqida so‘z boradi.



Kalit soʻzlar: Jadid, maʼrifat, usuli jadid, Turkiston, jamiyat, Boqchasaroy, Qrim, Ismoil Gaspirinskiy, gazeta.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ И ЕГО СУТЬ.

Аннотация: В статье рассматривается национально-культурное и просветительское возрождение джадидского движения, начавшееся среди народов Средней Азии, Кавказа и Центральной Сибири, считавшихся русской колонией в конце XIX – начале XX веков, его возникновение, распространение и идеологическое значение.

Ключевые слова: Джадид, просветительство, джадидский метод, Туркестан, общество, Бахчисарай, Крым, Исмаил Гаспиринский, газета.

THE EMERGENCE OF THE JADIDIST MOVEMENT AND ITS ESSENCE.

Abstract: This article discusses the national, cultural and educational revival of the Jadidist movement, which began among the peoples of Central Asia, the Caucasus, and Central Siberia, which were considered a Russian colony in the late 19th and early 20th centuries, its emergence, spread, and ideological significance.

Keywords: Jadid, enlightenment, Jadid method, Turkestan, society, Bakhchisarai, Crimea, Ismail Gaspirinsky, newspaper.

“Maʼrifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor boʻlib xizmat qilishi tabiiy”ligini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham oʻzlarining koʻplab nutqlarida taʼkidlab kelmoqdalar. Bu borada juda koʻplab amaliy ishlar amalga oshirilmogda. Shunday ekan, barkamol avlodni maʼnan shakllangan qilib tarbiyalashda dinimizdagi mehr-oqibat, rahm-shavqat, doimo atrofimizdagi kishilardan xabar olib turish kabi hislatlarni yoshlarning qalbiga singdirib, shu asosida ulgʻaytirmogʻimiz zarur boʻladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning maʼnaviy-maʼrifiy hayotning barcha sohalarida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Ilm-fan va taʼlim sohasida ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir qatorda istiqlool davri, uning keng imkoniyatlarini, mohiyatini aks ettiradigan asarlar yaratildi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ziyolilarga - ilm-fan, adabiyot va sanʼat namoyondalariga erkin ijod qilish, xalq ruhini chuqur his etish orqali yuksak saviyada asarlar yozish imkonini berdi. Ayniqsa, diniy qadriyatlar, ularning hayotimizdagi oʻrnini tadqiq qilishga bagʻishlangan koʻplab asarlar chop qilindi. Jumladan, islom tarixiga oid oʻnlab kitob va risolalar oʻzbek tilida kitobxonlarga taqdim qilindi.

Jadidchilik yoki **jadidizm** (arabcha: جديد *jadīd* — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan Oʻrta Osiyoda tarqaldi.

Rossiya va uning mustamlakalarida jadidchilik harakatiga Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) asos soldi. U Boqchasaroyda dastlabki “usuli jadid” (yangi



usul) maktabini 1884 yilda ochadi. Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmati Rossiya sarhadlarida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi, yaqinlashtirdi. Butun boshli ilg'or marifatparvar, ziyolilar qatlamini yetishtirdi. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi. Gaspirinskiyning o'lka ziyolilariga bergan tasiri haqida Toshkent jadidchilarining otasi deb tan olingan Munavvarqori 1927 yil Toshkent okrug maorif xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqida shunday degan edi: “Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarining yetishtirgan kishilari edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil Gaspirinskiy gazetasini o'qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar”. Shunday qilib o'lkada yangi maktablar ochishga Ismoil Gaspirinskiy va tatar ziyolilari, muallimlarining ibрати, yordami katta bo'ldi. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko'tarilish madaniy ma'rifiy harakat – jadidchilik sifatida namoyon bo'ldi.

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi [1].

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboixon Salimov (Xorazm) turardi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal, millatchilik harakati” deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSRI parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.



Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar oʻrtasida vujudga keldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari koʻpincha oʻzlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Oʻsha davrning ilgʻor taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat eʼtibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va magʻlubiyatga uchrash davrlari boʻlib, ularni shartli ravishda toʻrtga boʻlish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929-yillarni oʻz ichiga oladi [2].

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va oʻz vatanlarini mustaqil koʻrishni orzu qildilar va shu yoʻlda kurashdilar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish;
- turli maʼrifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy gʻoya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni oʻrta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa maʼrifat tarqatish,
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini oʻrnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qoʻshin tuzish.
- Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-maʼrifiy yoʻnalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidlar taʼlimoti – oʻz zamonasining haqiqiy taʼlimoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni oʻz ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi boʻlib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos boʻlishlarini taʼkidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxoʻja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan oʻquvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan oʻquvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday doʻkonlar masjid va madrasalarning yaqinida boʻlib, bolalarga salbiy taʼsir koʻrsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxoʻja Behbudiy barchani kelajak avlodni sogʻlom oʻstirishga chorlaydi. Sogʻlom aqlli, bilimli farzandlarimiz oʻsib ulgʻayib, oʻqib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor,



xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'ru qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar.

Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar.

Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyoitdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar [5].

Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni..., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining “Jamiyati Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi”.

Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: “Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz” [4]. Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi. Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta “dohiy”lar



hayotini - qachon, qayerdatug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan - bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi. O'zlikni anglash degani - bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi. O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ritushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi. Bu - erkin, ozod, tinch va barqaror, obodva farovon hayot demakdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviysiyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 18.
2. Tolak. XX asr o'zbek adabiyoti. “Andijon”, 1993. – B. 4.
3. Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B. 9.
4. Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B.13. “Sharq yulduzi”, 1992, № 10 - son.
5. Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B.18.



10.00.00-Filologiya fanlari

NUTQNING VAZIFAVIY USLUBLARI

Abduqahhorova Gulhayo Xabibullo qizi

University of Business and Science

Filologiya tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi.

Annonatsiya: Maqolada so‘zlashuv, rasmiy idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy nutq uslublarining o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan va nutq uslublariga xos leksik-semantik va boshqa xususiyatlar tahlil qilingan. Kishilarning o‘zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, fraziologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanishi ko‘rsatilgan. Nutq uslublarining har bir tilning bir butun yaxlit tizim doirasida ish ko‘rishi va ifoda maqsadiga ko‘ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanishi ochib berilgan. Nutq uslublarini belgilashda so‘z, grammatik shakl va grammatik qurilishining uslubiy bo‘yog‘i jiddiy hisobga olinishi ta‘kidlangan. Nutq uslublari umumxalq tili materiallari zaminida ajratilgan va shu nuqtai nazardan talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: Nutq uslublari, badiiy so‘z, til, nutq, umumxalq til, til vositalari, nutqqa munosabat, uslubiyat, nutqning barcha faoliyati, so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, ekspressiya.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СТИЛИ РЕЧИ

Аннотация: В статье освещены различия и общие стороны разговорного официально-делового, научного, публицистического и художественного стилей речи, проанализированы лексико-семантические и другие особенности. Показаны фонетические, лексические, фразеологические и грамматические средства, применяемые в коммуникативной деятельности людей. Раскрыты применения стилей речи языка, внутри речи как внутри и целой системе, а также раскрыты способы выражения, объединения и повторения. Учтены стилистические оттенки грамматического строя языка, грамматические формы в определении стилей речи. Стили речи истолкованы на основе общенародного языкового материала.

Ключевые слова: Стили речи, художественная речь, язык, речь, национальный язык, средства речи, методология, все речевые действия, стиль речи, официально-деловой стиль речи, научный стиль, публицистический стиль, художественный стиль, экспрессия.

THE FUNCTIONAL STYLES OF SPEECH

Abstract: In this article, the similarities and difference of the styles of conversation, official, scientific, publicist and art speech aspects and other characteristics are analyzed. The styles of speech of each language within its own entirely holistic system are discussed, and for the purpose of expression, language's characterization based on the organization and repetition openly discussed. The



coloring of the styles of speech based on the words, grammatical shape and grammatical structure are strongly highlighted. The styles of speech are separated subject to nationwide language materials system and it is interpreted within mentioned scope of system as well.

Key words: The styles of speech, arty word, language, speech, national language, language tools, attention to speech, methodology, all activities of speech, conversational style, official style, scientific style, publicist style, arty style, expression.

Ma'lum bir soxaning ish yuritishida bir xil takroriylik, muntazamlilik bilan ajralib turishi va manashu o'ziga xosligi stil(uslub)nomi bilan yuritiladi. "Stil" so'zi barcha soxada ishlatiladi. Masalan, Sharq uslubidagi bino, Sharq uslubidagi musiqa, Yevropa uslubidagi kiyim va boshqalar. "Nutq uslubi" tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan xoslikka aloqador.

Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. "...Maftun eshitishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi". Umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu "nutq uslublari"deb yuritiladi.

Nutq uslublari leksik-grammatik jihatidan farqlanib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida odatdagi tartib bo'yicha o'zgarib tursa terminlar murakkab hisoblanadi. Nutq uslublarning har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarining tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi,uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublari belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubida bo'lsa; tabasssum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi.

Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'ladi, yangidan paydo bo'ladi. Masalan, rasmiy-idoraviy, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangida paydo bo'ldi, bugungi kunda esa jamiyatdagi yangiliklar hisobiga har bir uslub yanada rivojlanmoqda.

Nutq uslublari yozma va og'zaki nutq shakllari bilan qat'iy bo'g'liq. Nutq uslublari qaysi shaklda va qaysi sohada bo'lmasin, milliy adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi.

Nutq uslublari asosan 5 ta katta turga bo'linadi:

1 So'zlashuv uslubi.

2 Rasmiy-idoraviy uslub.



3 Publitsistik uslub.

4 Ilmiy uslub.

5 Badiiy uslub.

So‘zlashuv uslubi deganda kishilarning kundalik faoliyatida o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi og‘zaki nutq tushuniladi. Bu uslubda sheva elementlari, passiv lug‘atga xos so‘z va ibralar, boshqacha qilib aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksin, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatiladi.

So‘zlashuv uslubiga xos yana bir xususiyat so‘zni qisqartirish va ko‘chma ma'noda qo‘llashdir. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropolitan), tushlik (tushlik ovqat), ovqatga o‘tiring (ovqat yegani o‘tiring) kabi so‘zlar xam asosan, so‘zlashuv uslubiga xosdir.

Ayrim eskirgan palta, chipta, chek, pattachi, shayton arava kabi so‘zlar ham so‘zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir.

So‘zlashuv uslubi asosan, dialogik xarakterda bo‘lganida imo-ishorala, qo‘shimcha izohlar, takrorlar (so‘zda), qaytariqlardan (gapda), qo‘l, bosh va gavda harakalaridan fikr ifodalashda qo‘shimcha vosita sifatida foydalaniladi. Bu nutqning dialog xarakterda bo‘lishi nutq vaziyatiga ko‘ra ko‘proq to‘liqsiz gaplardan foydalanishni taqazo etadi.

Huquqiy va diplomatik hujjatlar, davlat qonunlari, idora-tashkilotlarning qarorlari, buyruqlari, ahdnoma, shartnomalar va kishilarning turli tashkilotlar bilan yozishmalaridagi o‘ziga xos so‘z tanlash usul va fikr ifodalash vositalarida rasmiy-idoraviy uslubning xususiyatlari aks etadi. Rasmiy-idoraviy uslubi juda keng va xilma-xil bo‘lsa-da, so‘z aytish va ifoda vositalarining yaxlitligi bilan umumiy tizimga birlashadi. Rasmiy-idoraviy uslub uchun shtamp holiga kelib qolgan ibora-ifodalar xarakterlidir. Masalan, qaror, buyruq va farmonlarda gapning kesimi ko‘pincha majhul nisbatdagi buyruq fe‘li formasida bo‘ladi. Bu soxada har bir sohaning o‘z terminlari bo‘ladi. Umumxalq tilida ishlatiladigan ayrim so‘zlar rasmiy-idoraviy uslubidagi terminga, faqatgina bir ma‘no anglatuvchi (monosemantik) so‘zga aylanishi mumkin.

Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘chma ma'noli, polisemantik, tantanali (badiiy) so‘zlar ishlatilmaydi. Aksincha, aniq ma'noli so‘zlar va iboralar, murakkab gaplar, tarkibi qism va pragraflardan iborat bo‘lib, yaxlit bir maqsadga xizmat qiladigan periodlar ko‘p kuzatiladi.

Idoraviy yozishmalarga misol: spravka, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnoma, ishonch qog‘ozi va boshqalarning ham standart formalari, shtamlari bo‘lib, bular yozuvni ossonlashtiradi. Masalan: spravkada "Berildi ushbuni...ga shu haqdakim" deb boshlanuvchi hujjatlarning tayyor nusxalari xam bo‘ladiki, kerak bo‘lganda, u to‘ldiriladi xolos.

Ilmiy uslubda obyektiv olam voqea-hodisalarning ichi va tashqi xususiyatlarini ochib, biror xulosaga kelishi va buni ta‘riflash xaraterli.

Ilmiy uslubda badiiy tasvir vostalari, tantanali leksika kabilardan deyarli foydalanilmaydi. Biroq ilmiy-ommabop asarlar ham mavjudki, bunda so‘zlovchi sof ilmiy bayondan chekinadi, o‘z fikr-mulohazalarini, ilmiy xulosalarning tushunarli



bo‘lishi uchun badiiy-publitsistik, shuningdek, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘z ibora va gaplardan foydalanishga harakat qilinadi.

Publitsistik uslub yozma va og‘zaki shaklga ega bo‘lib, yozma shakl gazeta va jurnallarning bosh maqolalari, felyetonlar, pamfektlar, murojatnomalar, chaqiriqlar, dekleratsiyalardan iborat, og‘zaki shakl esa notiqlik san‘atidir. Og‘zaki shaklga kundalik axborotlar, sharhlovchining chiqishlari xam kiradi.

Har ikki formada ham siyosiy faolluk, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan nutq, mantiqiy salobat, targ‘ibot vatashqiqot kabi xususiyatlar mavjud bo‘ladi.

Publitsistik uslubda avtorning voqealikka munosabati aniq sezilib turadi. Avtor hayotiy masalalarni chuqur mulohaza yuritib taxlil qiladi, isbotlaydi, asoslab tushuntirishga urinadi, tinglovchi ishontiruvchi detal va faktlar keltirish bilan kishida tasvirlanayotgan voqealikka salbiy yoki ijobiy munosabat tug‘diradi, unga ta’sir etadi. Shuning uchun ham uslubda tilning barcha vositalaridan foydalanish mumkin.

Badiiy uslub inson amaliy faoliyatining barcha soxasini qamrab olishi, umunga qaratganligi, barcha kasbkor egasi uchun mo‘jallanganligi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanib turadi. Badiiy uslubda hayot voqealari va kishilar to‘g‘risidagi oddiy axborotlar berilmaydi, aksincha, ular o‘quvchi ko‘z o‘ngida, jonli tarzda, so‘z bo‘yoqlari yordamida barcha detal va xarakter-xususiyatlari xayol pardasi ortida gavdalanitirilib o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi.

Demak, badiiy uslubning vazifasi estetik zavq va voqealikka biror yo‘sinda munosabat uyg‘otishidir. Badiiy uslub xam boshea uslublar kabi opz ichki bo‘linishlariga ega. Masalan, poetik uslub, masal uslubi, ertak uslubi kabilarga bo‘linadi. Badiiy uslubning vositasi xam tildir. Lekin bunda til aloqa vazifasini obraz, xarakter va nafis manzaralar yaratish orqali bajaradi, shu yo‘l bilan uning ta’sir e’tish, harakatga keltirish vazifasi namoyon bo‘ladi. Badiiy uslubda so‘z, ibora va gaplar sayqal topadi, yangi-yangi ottenka va mazmun kashf etiladi. Masalan: "Quyosh g‘uborsiz ko‘kda taltayib porlaydi". Gapida "taltayib", "porlaydi", "g‘uborsiz" so‘zlari alohida sayqal topgan.

So‘z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog‘liq. Masalan: arxaik so‘zlar ba’zan davr kolriti, shaxs harakterini ko‘rsatish uchun ishlatilsa, ba’zan kulgi-mazax uchun xizmat qiladi. Masalan: A.Qodiriyning romanlarida ishlatilgan arxaik so‘zlar davr koloritlarini ko‘rsatishga, satrik asarlarda esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirgan. Badiiy uslubda grammatik shakllardan ham obraz yaratish va kolorit berish maqsadlarida foydaniladi. Masalan: Oybekning "Navoiy", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlarida -ur,-erdi, andoq, shulkim kabi formalar ishlatganligini kuzatish mumkin.

Nutqning so‘zlashuv, rasmiy-idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublari mavjud bo‘lib, ular o‘xshash va farqi jihatlariga ega, bu xususiyatlar matnda reallashadi. Nutqning vazifaviy uslublari, umumxalq tili materiallari zahirida ajratiladi va shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Jamiyatdagi yangiliklar uslublarning rivojlanishiga olib keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi.-Toshkent: 1969, 199-bet.
2. O‘rinboyev B. So‘zlashuv nutqi.-Toshkent: Fan, 1979. 9-bet.
3. Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilning ilmiy stili. Toshkent 1984-yil 4-bet.
4. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. 2005, 11-bet.
5. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materllar. Guliston, 1988, 10-bet
6. Enazarov T. O‘zbek nutqi madaniyati. Toshkent, 2018, 5-bet.

INGLIZ VA RUS TILLARINING GRAMMATIK YAQINLIGI: BIRINI BILGAN HOLDA BOSHQASINI OSON O‘RGANISH YO‘LLARI

Komiljonova Madinabonu Akmaljon qizi
University of Business and Science
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Ingliz filologiyasi 1-kurs 24/10 talabasi.
madinakomiljonova06@gmail.com

Ilmiy rahbar: Aliyev A‘zamjon

Annotatsiya: Ushbu maqolada men ingliz va rus tillarining grammatik tuzilmalari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni tahlil qilib, ular o‘rtasidagi lingvistik yaqinlikni amaliy misollar orqali yoritib bermoqchiman. Tadqiqot davomida bir tilni egallagan shaxs ikkinchi, yaqin tilni qanday qilib samaraliroq o‘zlashtirishi mumkinligi haqida fikr yuritaman. Shuningdek, maqolada til o‘rganish jarayonini yengillashtiruvchi strategiyalar, metodlar va yondashuvlar ham ko‘rib chiqiladi. Ishonchim komilki, mazkur maqola ingliz va rus tillariga qiziqishi bo‘lgan o‘quvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, rus tili, grammatika, til o‘rganish, o‘xshashlik, strategiya, tahlil

ГРАММАТИЧЕСКОЕ РОДСТВО АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ: ПУТИ ЛЕГКОГО ИЗУЧЕНИЯ ОДНОГО ПРИ ЗНАНИИ ДРУГОГО

Аннотация: В данной статье я анализирую грамматические сходства и различия между английским и русским языками, раскрывая лингвистическое родство между ними на основе практических примеров. В процессе исследования рассматриваю, как знание одного из этих языков может значительно облегчить освоение другого. Также в статье уделяется внимание эффективным стратегиям, методам и подходам, способствующим успешному изучению языков. Уверена, что эта работа будет полезна учащимся, интересующимся английским и русским языками.

Ключевые слова: Английский язык, русский язык, грамматика, изучение языков, сходство, стратегия, анализ.

GRAMMATICAL SIMILARITIES BETWEEN ENGLISH AND RUSSIAN: HOW KNOWING ONE CAN HELP LEARN THE OTHER EASILY

Abstract: In this article, I analyze the grammatical similarities and differences between the English and Russian languages, highlighting their linguistic connections through practical examples. I explore how knowledge of one language can significantly ease the process of learning the other. Additionally, the paper discusses effective strategies, methods, and approaches that facilitate successful language acquisition. I believe this article will be beneficial for learners who are interested in both English and Russian.

Keywords: English language, Russian language, grammar, language learning, similarity, strategy, analysis

Krish

Men ingliz tilini yaxshi darajada bilaman va yaqinda Duolingo ilovasi orqali ingliz tili asosida rus tilini o'rganishni boshladim. Til o'rganish jarayonida bir qiziqarli holatga duch keldim: ko'plab rus va ingliz so'zlari o'rtasida o'xshashlik borligi meni hayratda qoldirdi. Masalan, "I am not a teacher" (Men o'qituvchi emasman) va uning ruscha tarjimasini "Я не учитель" — bu ikki jumladan ham gap boshida ega keladi, keyin esa inkor shakli va kasb nomi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, biror tilni lug'at asosida o'rganar ekanmiz, biz boshqa til grammatikasini ham bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, ingliz va rus tillarida ko'plab so'zlar ham bir-biriga o'xshash yoki aynan bir xil bo'lib chiqadi — masalan, "engineer", "doctor", "student" va boshqalar. Shularning barchasi menga bir fikr berdi: bu ikki tilni solishtirish orqali o'zaro o'xshashlik va farqlarni aniqlash, va shu asosda o'rganish jarayonini osonlashtirish mumkin. Shuning uchun men ushbu maqolada ingliz va rus tillari o'rtasidagi grammatik va leksik jihatdan o'xshashliklar hamda farqlarni tahlil qilishni maqsad qildim.

ASOSIY QISM

Ingliz va rus tillarining umumiy grammatik asoslari

Men ingliz va rus tillarini o'rganar ekanman, eng avvalo ularning umumiy grammatik asoslariga e'tibor qaratdim. Har ikkala til ham zamon, gap tuzilmasi, so'z turkumlari kabi asosiy grammatik elementlarga ega. Misol uchun, har ikkala tilda fe'l zamonlari mavjud: hozirgi zamon (present), o'tgan zamon (past) va kelasi zamon (future). Bu menga til strukturasi bilan tanishishga yordam berdi.

Shuningdek, so'z turkumlari — ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish — ikkala tilda ham mavjud bo'lib, ularni solishtirish orqali so'zlarning vazifasi va gapdagi o'rnini tushunishim osonlashdi. Gap tuzilmasi ham o'xshash: ingliz tilida klassik tartib SVO (subject–verb–object), ya'ni ega–fe'l–to'ldiruvchi tarzida bo'lsa, rus tilida bu tartib ancha erkin bo'lsa-da, asosiy mazmun saqlanadi. Bu o'xshashliklar boshlang'ich o'rganish bosqichida menga qulaylik yaratdi.

Leksik va semantik o'xshashliklar

Ingliz va rus tillari grammatik tuzilmalari bilan bir qatorda, ayrim leksik va semantik jihatlarida ham o'zaro yaqinliklarga ega. Bu ayniqsa xalqaro atamalar, fan-texnika, kompyuter texnologiyalari, tibbiyot, va biznes sohalarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, ingliz tilidagi "computer", "internet", "bank", "manager", "doctor",



“system” kabi soʻzlar rus tilida ham “компьютер”, “интернет”, “банк”, “менеджер”, “доктор”, “система” kabi deyarli oʻzgarmagan holda ishlatiladi.

Bu lugʻaviy yaqinlik xalqaro soʻzlar deb ataladi va ular ingliz tilidan bevosita rus tiliga (yoki aksincha) oʻtgan boʻlishi mumkin. Bu holat yangi soʻzlarni oʻrganishda sezilarli darajada yengillik yaratadi, ayniqsa akademik yoki texnik matnlar bilan ishlayotganda.

Shuningdek, semantik yaqinlik ham mavjud: ingliz tilidagi “time”, “family”, “friend”, “school” soʻzlari rus tilida “время”, “семья”, “друг”, “школа” tarzida tarjima qilinadi. Har ikkala tilda bu soʻzlarning asosiy maʼnosi bir xil boʻlib, ular kundalik muloqotda tez-tez uchraydi. Bu kabi umumiyliklar soʻz boyligini oshirishda psixologik toʻsiqlarni kamaytiradi va yodlashni tezlashtiradi.

Albatta, bu oʻxshashliklar bilan bir qatorda soxta doʻstlar (false friends) ham bor, yaʼni koʻrinishda bir xil boʻlsa-da, maʼnosi turlicha boʻlgan soʻzlar. Masalan, ingliz tilidagi “magazine” (jurnal) rus tilidagi “магазин” (doʻkon) bilan oʻxshash, lekin maʼnosi butunlay boshqa. Shuning uchun har ikki tilni oʻrganayotganda bunday soʻzlarga alohida eʼtibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va rus tillaridagi leksik va semantik oʻxshashliklar ikki tilni bir vaqtning oʻzida yoki navbatma-navbat oʻrganayotgan shaxslar uchun samarali til oʻzlashtirish manbasi boʻla oladi.

Farqli jihatlar

Biroq bu ikki til orasida ancha farqli jihatlar mavjud. Birinchi katta farq bu yozuv tizimi: ingliz tili lotin yozuvida, rus tili esa kirill yozuvida yoziladi. Bu menga dastlab noqulaylik tugʻdirgan boʻlsa-da, bosqichma-bosqich alifbo bilan ishlash orqali bu muammoni yengdim.

Yana bir farq bu artikllar masalasi. Rus tilida artikl yoʻq, ingliz tilida esa aniq (the) va noaniq (a/an) artikllar mavjud. Bu menga ingliz tilida gap mazmunini aniqlashtirishda muhim rol oʻynashini tushunishga yordam berdi.

Shuningdek, feʼlning harakat turi (perfective vs imperfective aspect) rus tilida juda muhim boʻlib, harakatning tugallangan yoki davom etayotganligini bildiradi. Ingliz tilida bu tushuncha feʼl zamonlari orqali ifodalanadi, ammo rus tilida aynan harakat turi asosiy ahamiyatga ega boʻladi.

Bundan tashqari, feʼl tuslanishi va egalik olmoshlari har ikkala tilda har xil ishlatiladi. Ingliz tilida feʼlning shaxsga moslashuvi kamroq, rus tilida esa feʼl har bir shaxs va son uchun alohida tuslanadi. Bu esa menga har ikkala tilga xos murakkablikni chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Bir tilni bilgan holda ikkinchisini oson oʻrganish strategiyasi

Men ingliz tilini bilganim sababli rus tilini oʻrganishda baʼzi strategiyalardan foydalandim. Masalan, rus tilida ot jinslari (mužskoy, ženskoy, sredniy rod) muhim oʻrin tutadi, bu esa menga yangi soʻzlarni oʻrganishda ogʻriq nuqtalarini aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, feʼl zamonlari rus tilida oʻrganilayotganda ularning harakat turi bilan bogʻliqligiga eʼtibor berdim.

Aksincha, rus tilini bilgan insonlar ingliz tilini oʻrganayotganda artikllarni oʻzlashtirish, soʻzlarning qatʼiy tartibini tushunish, va mustahkam gap tuzilmasini



o‘zlashtirishda ko‘proq mashq qilishlari kerak bo‘ladi. Bu strategiyalarni anglaganim menga ikki til o‘rtasida ongli ravishda ko‘prik qurishga yordam berdi.

O‘rganishdagi amaliy tavsiyalar

Til o‘rganish jarayonida men bir necha amaliy usullardan foydalanaman. Eng foydali usullardan biri bu — grammatik qiyosiy jadval tuzish. Bu menga har bir tilning o‘ziga xos grammatik qurilishini bir qarashda solishtirish imkonini beradi.

Yana bir foydali usul — tarjima qilishni mashq qilish. Men ingliz tilidagi matnlarni rus tiliga, yoki aksincha, rus tilidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilib, grammatikani amalda qo‘llashni o‘rgandim.

Parallel matnlar bilan ishlash — ya‘ni bir mavzuda yozilgan inglizcha va ruscha maqolalarni bir vaqtda o‘qish esa yangi so‘zlarni tezroq eslab qolishimga yordam berdi.

Yana bir samarali yo‘l — interaktiv platformalardan foydalanish. Duolingo, LingQ, BBC Learning English yoki RussianPod101 kabi ilovalar orqali men ikki tilni bir vaqtda amaliy o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Bu metodlar nafaqat nazariy bilimlarimni, balki tinglab tushunish, talaffuz va yozuv ko‘nikmalarimni ham yaxshiladi.

Xulosa

Ingliz va rus tillari to‘liq grammatik jihatdan bir xil bo‘lmasa-da, ular orasida muhim o‘xshashliklar mavjud. Ayniqsa, fe‘l zamonlari, harakat ifodasi va so‘z tartibi kabi elementlarda ayrim umumiyliklar kuzatiladi. Shu bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari ham bor bo‘lib, o‘rganishda diqqat-e‘tibor talab etadi.

Bir tilni yetarli darajada o‘zlashtirgan o‘quvchi ikkinchi tilni o‘rganishda mavjud bilimlari va til sezgisi orqali o‘zlashtirishni tezlashtirishi mumkin. Bu holat ayniqsa, ingliz tilidan foydalangan holda rus tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar orasida ko‘p kuzatiladi.

Grammatik tuzilmalarni qiyosiy tahlil qilish, o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash o‘rganuvchiga ikki til orasidagi o‘tishlarni soddalashtirishga yordam beradi. Shunday ekan, til o‘rganishda strategik yondashuv va tahliliy fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murphy, Raymond. English Grammar in Use. 5th Edition. Cambridge University Press, 2019.
2. Vinogradov, V. V. Russkaya grammatika. Moskva: Nauka, 2003.
3. Crystal, David. The Stories of English. Penguin Books, 2005.
4. Yusupova, D. N. “Ikki tilli o‘rganishda kod-almashish va grammatik moslashuv.” // Tilshunoslikning dolzarb muammolari, 2021.



MAVSUMIY XALQ BAYRAMLARI

Obidova Nasiba Muhammadjon qizi

University of Business and Science

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

[*nasibaobidova05@gmail.com*](mailto:nasibaobidova05@gmail.com)

Annotatsiya: Bayram — keng nishonlanadigan tantanali kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko‘ra an‘anaviy, diniy, milliy, mavsumiy va boshqa bayramlar vujudga keldi. O‘zbekistondagi bayramlar mamlakatning rang-barang madaniy va tarixiy merosini aks ettiradi. Bu bayramlar qadimiy ildizlarga ega bo‘lgan an‘analarini ham, mamlakat mustaqillikka erishgandan so‘ng joriy etilgan milliy bayramlarni ham o‘z ichiga oladi. Maqolada o‘zbek xalqining yillar davomida o‘tkaziladigan asosiy mavsumiy odatlari, bayramlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mavsumiy marosim, bayram, odat, gap-gashtak, lola sayli, uzum sayli, an‘ana.

SEASONAL FESTIVALS

Abstract: A holiday is a widely celebrated festive day. In the course of socio-economic development, traditional, religious, national, seasonal and other holidays have emerged, depending on their origin, content, and place in social life. Holidays in Uzbekistan reflect the country's diverse cultural and historical heritage. These holidays are about both traditions with ancient roots and those that have emerged since the country gained independence.

Keywords: Seasonal ritual, holiday, custom, talk, tulip festival, grape festival, tradition.

СЕЗОННЫЕ ФЕСТИВАЛИ

Аннотация: Праздник — широко отмечаемый торжественный день. В ходе социально-экономического развития в зависимости от происхождения, содержания и места в общественной жизни появились традиционные, религиозные, национальные, сезонные и другие праздники. Праздники Узбекистана отражают многообразное культурное и историческое наследие страны. В этих праздниках заложены как традиции, имеющие древние корни, так и те, которые возникли после обретения страной независимости.

Ключевые слова: Сезонный ритуал, праздник, обычай, беседа, праздник тюльпанов, праздник винограда, традиция.

Kirish.

Dunyodagi barcha xalqlarning o‘ziga xos urf-odati, bayramlari bo‘ladi. Jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarining ham iqlim, tabiat, mahaliy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, kishilarning kundalik hayoti, mehnati, madaniyati asosida marosimlar, bayramlar shakllanib borgan.

Folklorshunoslikda marosim folklori janrlari ikki katta guruhga ajratish an‘anasi mavjud. Bu turlar quyidagi ko‘rinishga ega:



1. Mavsumiy marosim folklori

2. Oilaviy marosim folklori

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarning almashinuvi avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining boshlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o'tish muddati mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bilmay, butun xalq ommasiga tegishlidir [4]. Shuningdek, o'zbek mavsumiy marosimlarida, jumladan, bahorgi-sumalak, gul sayli, suv sayli;

kuzgi-qovun sayli, uzum sayllari ; qishki — Birinchi qor, Gap-gashtak kabi odatlar ham bor. Marosimlar haqida gap ketar ekan,

ularning ayrimlariga alohida to'xtalib o'tishga intildik.

Asosiy qism:

Bahor mavsumi marosimlari:

Boychechak sayli - erta ko'klamda adirlarda, tog' va dalalarda qor erishi bilan boychechak unib chiqqanda o'tkaziladigan o'ziga xos bolalar bayrami. Bolalar boychechak ochilishi bilan uni terishgan, so'ng uyma-uy kirib, qariyalardan suyunchi va duo olishgan.

Navro'z- tabiat uyg'onishi, bahor kelishi, kun va tun tengligi, dala ishlari boshlanishi kabi hodisalar bilan nishonlanadigan bayram. Bayramda bahor kelishi, yangi mehnat mavsumga bag'ishlangan sayllar o'tkazilib, tomoshalar, o'yinlar uyushtiriladi, maxsus taomlar pishiriladi.

Sumalak sayli- bahoriy taom pishirishga bag'ishlangan tadbir. U asosan ikki qismdan iborat: 1) sumalak tayyorlash va qozonga solib pishirish chog'ida qilinadigan o'yin-kulgi; 2) sumalakxo'rlik qilish, ya'ni sumalakni odamlarga ulashish va sumalak saylini uyishtirish [1].

Ko'k maysalar terish odatlari — erta bahorda maysalar o'sishi bilan bolalar uni terishgan. Ismaloq, Otquloq terish-bahor faslida kishilar shu kabi o'simliklarni terib, undan somsa, chuchvara kabi taomlar tayyorlashib, baham ko'rishgan.

Tolbargak va Gulband taqish - qizlar odati. Bahor faslida qizlar dalaga chiqib, tol bargi va gul bandlari terishib, bosh va sochlariga tolbargak yoki gulchambar qilib taqishgan.

Yozgi mavsumiy marosimlar:

Yozgi chilla — eng uzoq kun va qisqa tun sodir bo'lganida, yozning eng issiq kunlari boshlanganida 40 kun davom etadigan muddat. Bu vaqtda kishilarning suvga ehtiyoji kuchayadi va ular ko'pgina tadbirlarni uyushtirishga harakat qilishadi

Suv sayli — O'rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo'lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Sayl jarayonida kishilar suvni e'zozlash, uning qadrini anglash bilan birgalikda, suv havzasi yonida dam olishgan va cho'milishgan.

Gilos sayli — dalalarda, bog'larda gilos pishganda dehqonlar qarindoshlarini chaqirib hashar va ziyofat uyushtirishgan, qariyalar duosini olishgan. Ayni pishiqchilik davrida bozorlarda gilos savdosi, tomosha, sayl, tanlovlar o'tkazilgan.

Kuzgi mavsumiy odatlar:

Bog‘ sayli, Xazonrezgi — kuzning oxirida bog‘larda daraxt bargi sarg‘ayib tushayotgan vaqtda, dov-daraxtlar oxirgi mevalarini iste‘mol qilish va bu yilgi mavsum bilan xayrlashish maqsadida uyishtirilgan [1].

O‘zbek dehqonlarining an‘anasiga ko‘ra bug‘doyni o‘rib-yig‘ib olgandan keyin, yanchiq paytida “Chosh qurdi”, “Chosh oshi”, “Xirmon oshi” kabi marosimlar o‘tkazilgan [5].

Tok oshi — kuzda yerga ko‘milgan tok novdalari bahorda ochilganidan so‘ng kishilar yaxshi niyatlar bilan to‘planishib, osh qilishgan. Yig‘ilganlar dasturxon boshida boshlanadigan yangi mavsum uchun yaxshi tilaklar qilishgan, maxsus taomlardan so‘ng o‘yin-kulgi qilishgan.

Qishki mavsumiy marosimlar:

Birinchi qor — ilk qor yoqqan kuni uyishtiriladigan tadbir. Bunda „Qor xati“ yozib, yaqinlarini ziyofatga chaqirish odati ham bo‘lgan. “Qor yog‘di” ba‘zi joylarda, xususan, Toshkentda birinchi qordan so‘ng marhumlar mozorini ziyorat qilish va undan so‘ng is chiqarish tarzida o‘tkazilgan [1].

Gap-gashtak — qishda bo‘sh vaqtlarda ulfatlar orasida navbatma-navbat o‘tkaziladigan ziyofat va dam olish tadbiri [1].

Albatta, har bir hududda xalqimizga xos umuman‘analar bilan bir qatorda, mahalliy muhitga mos tadbirlar ham bo‘lgan. Milliy an‘analar, bayramlar, marosimlar insoniyat bosib o‘tgan yo‘llarni o‘zida aks ettiradi. Qolaversa, xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak shamol chaqirish va to‘xtatish, yomg‘ir chaqirish marosimlar o‘tkazilganini ko‘rishimiz mumkin. Yomg‘ir chaqirish marosimi “Sust xotin”, “Sut xotin”, “Suv xotin” kabi bir nechta nomlar bilan yuritilgan.

Sust xotin, sulton xotin,

Ko‘lankasi maydon xotin.

Sust xotinga ne kerak,

Sharros-sharros yomg‘ir kerak [3].

Marosimlar, odatlar turli-tuman bo‘lganidek, bularga bag‘ishlangan qo‘shiqlar ham xilma-xildir. Qo‘shiqlar xalqning oilaviy, marosim bayramlarni bezab kelgan. Mavsumiy marosimlar vaqtida kishilar qo‘shiq kuylashgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanishgan [6].

Filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo‘rayevning “O‘zbek mavsumiy marosim folklori” kitobini o‘qigan kitobxon o‘zbeklarda yilning 365 kunidagi deyarli har bir kun dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik kasbi bo‘yicha o‘zining maxsus nomi, marosim bilan bog‘liq jihatlari borligiga ishonch hosil qiladi [2].

Qolaversa, mavsumdagi yig‘im-terim ishlarida qo‘shiq kuylab ishlashgan. Qo‘shiq atamasi ilk marta Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan qayd etilgan. Muallif unga she‘r, qasida deb izoh bergan. M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot at-turk” asarida ham mavsumga ya‘ni “Qish va bahor” munozarasiga bag‘ishlangan to‘rtliklar keltirilgan [7].



Xulosa.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, bugungi globallashuv davrida ham mavsumiy xalq bayramlari oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Aksincha, ular milliy oʻzlikni saqlash, yoshlarga urf-odatlarini yetkazish va oilaviy birlikni mustahkamlashda muhim vositaga aylanmoqda. Bahor bayramlari – Navroʻz, kuzgi hosil bayramlari, qishki qadimiy udumlar xalqimiz hayotiga quvonch, mehr-oqibat va birlik bagʻishlaydi. Bu bayramlar nafaqat dam olish, balki ezgulik, saxovat, tabiatga hurmat singari qadriyatlarni targʻib etadi. Kelajak avlod ushbu bayramlar orqali oʻz ildizlarini angelaydi, madaniy merosimizni qadrlashga oʻrganadi.

Mavsumiy xalq bayramlari — bu xalqimizning qadimiy urf-odatlari, tabiat bilan uygʻun yashash madaniyati va ijtimoiy hayotining ajralmas bir boʻlagidir. Bahor, yoz, kuz va qish fasllariga xos tarzda nishonlanadigan bu bayramlar orqali xalq oʻzining mehnat faoliyatini, tabiatga boʻlgan munosabatini va milliy qadriyatlarini ifoda etadi. Navroʻz, Hosil bayrami, Sumalak sayli kabi anʼanaviy tadbirlar nafaqat oila va jamiyatni birlashtiradi, balki yosh avlodga oʻzligimizni, tarixiy ildizlarimizni anglashda ham muhim rol oʻynaydi. Shu sababli mavsumiy bayramlarni asrab-avaylash, ularni yangi avlodlar ongiga singdirish va zamon talablari asosida boyitib borish — bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Qolaversa, mavsumiy marosimlar xalqimizning madaniy merosi, anʼana va urf-odatlarni ifoda etishda, jamiyatda birlik va hamjihatlikni mustahkamlash, avlodlar oʻrtasida madaniy aloqalarni davom ettirishda katta ahamiyatga ega. Har bir mavsumiy marosim tabiat istaklari bilan bogʻliq boʻlib, odamlarni tabiat va atrof-muhitga yanada hurmat bilan qarashga undaydi. Shu sababli, mavsumiy marosimlarni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish – barchamizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмон Қорабоев. Ўзбек халқи байрамлари. «Шарқ» нашриёти:2002
2. Abdumurod Tilavov Folklorshunoslik nazariyasi Toshkent:2020.
3. Б. Саримсоқов. Ўзбек мавсумий фольклори Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти 1986:53 бет
4. G. Oripova Oʻzbek folklori Fargʻona “Classic” nashriyoti: 2021
5. T. Mirzayev, Sh. Tursunov, M. Joʻrayev Oʻzbek folklori - darslik, Toshkent “Tafakkur boʻstoni” : 2020.
6. Матлуба Муродова Фолклор ва этнография ТОШКЕНТ 2006.
7. 11-sinf adabiyot darsligi 2018



NAVOIYNING AYRIM BAYTLARIDA TALMEH SAN’ATI

Ravshanova Madina Zafarjon qizi

University of Business and Science

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ravshanovamadinabonu05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiynng ayrim g‘azallarida qo‘llangan talmeh san’ati ma’nolari izohlab o‘tilgan. Jumladan, Xizr, Jamshid, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Jomiy, Dehlaviy talmehlariga sharx berilgan. Navoiy ijodidagi badiiy san’atlardan talmeh har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafosati bilan, xilma-hil ifoda usullari bilan berilgani, o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shunindek, nozik va teranligini yorqin lavhalarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy, mumtoz adabiyot, talmeh, nido, she’riy san’atlar, g‘azal.

THE ART OF PAINTING IN THE DIFFERENT DIALECTS OF NAVOI

Abstract: This article explains the meanings of the art of talmeh used in some ghazals of Alisher Navoi. In particular, commentaries on Khizr, Jamshid, Farhad, Shirin, Layli, Majnun, Jami, and Dehlavi talmahs are given. The description of Navoi's works of art is perfect in every way, with its artistic elegance and various methods of expression. .

Key words: Navoi, classical literature, talmeh, nido, poetic arts, ghazal.

ИСКУСТВО НАВОЙНОГО ТАЛМЕХА В РАЗНЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В этой статье объясняются значения искусства толкования, примененного в некоторых газелах Алишера Навои. В частности, даны комментарии к тальмехам Хизра, Джамшида, Фархада, Ширина, Лайли, Маджнуна, Джами, Делава. В творчестве Навои воплощены всесторонне совершенные интерпретации художественного искусства, его художественная философия, разнообразие способов выражения, ярко проиллюстрированы идейное богатство и красота узбекского языка, его тонкость и глубина.

Ключевые слова: пророчество, классическая литература, тальма, крик, поэтические искусства, поэзия.

O‘zbek mumtoz adabiyotini she’riy san’atlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Adabiyot san’at turi sifatida insonga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir go‘zallik vositasida amalga oshadi. Mazkur go‘zallik esa badiiy adabiyotda so‘z orqali namoyon bo‘ladi. Biz badiiy adabiyot namunasi bilan tanishib ozimiz uchun shu paytgacha bilgan yoki his etgan narsalarimizdan boshqacharoq bir holatga, yangilikka duch kelamiz. U oldindan ma’lum bo‘lmagani uchun bizda ichki bir qiziqish, ajablanish, hayratni uyg‘otadi. Bular badiiy asarlarning ijodkorligi bo‘lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir bo‘ladi. Ularning bir qismi bevosita she’riy san’atlar bilan bog‘liq. O‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan she’riy san’atlardan biri talmeh san’atidir.

Talmeh arabcha soʻz boʻlib, maʼnosi “chaqmoq chaqilishi”, “bir nazar tashlash” demakdir. Badiiy sanʼat sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir [1]. Bilamizki, oʻzbek mumtoz adabiyotining asoschisi boʻlgan Alisher Navoiy oʻz asarlarida juda koʻp sheʼriy sanʼatlardan foydalangan. Shulardan biri, talmeh sanʼatidir. Navoiyda shunday bayt mavjud:

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom

Soqiyo, to tarki joh aylab gado boʻldum sanga.

Ushbu baytda ikkita shaxs nomi: Jamshid podshoh va Xizr tilga olinadi. Jamshid podshoh Eronning mashhur podshohlaridan biri. U sharobni ixtiro qilgan shohdir. Undan tashqari, u Navroʻz bayramining asoschisidir. U sharobni ixtiro qilgani uchun oʻzbek mumtoz adabiyoti Jomi Jam iborasi keng tarqalgandir. Xizr, Xazrati Xizr - islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson, u hayot bulogʻidan “obi hayot” ichgan umri boqiy boʻlgan tarixiy qahramondir. Uni xalq ichida oʻlmas qahramonlardan biri sifatida tasvirlanadi. Buning sababi “obi hayot” yaʼni Jannat suvining ichganidir deb sabab koʻrsatiladi. Soqiyo bu soʻzning maʼnosi “may kuyuvchi” deganidir [2]. Endi bu baytning tahliliga oʻtadigan boʻlsak. Navoiy bu bayti orqali nima demoqchi? Navoiy bu baytda Allohga oshiq boʻlganini tasvirlamoqchi. Yaʼniki menga Jamshid podshohning sharobidan koʻra Xizr ustundir deya taʼkidlaydi. Bu baytda talmeh sanʼatidan tashqari nido sanʼati ham bordir. Navoiy bu baytda Soqiyo deb, may kuyuvchiga murojaat qiladi. Navoiy quyidagi asarlarida juda koʻp talmeh sanʼatini qoʻllaydi. Bu asarlar Navoiyning mashhur asarlaridan biri “Qaro koʻzum” yoki boʻlmasa “Xazoyin ul maoniy”lardir. Masalan:

Ey koʻngul, Farhod Majnun boʻlgay erdi bizda zor

Boʻlsa erdi Layliyo Shirin bizing jononcha xoʻb [4].

Navoiy bu baytda ikki mashhur juftlikni tilga oladi. Bular: Farhod va Shirin, Layli va Majnundir. Ular bilan bogʻliq rivoyatlar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarning “Xamsa” asarlarida uchraydi.

Farhod va Shirin – eronlik xalqlar adabiyotlarida anʼanaviy mazmunga ega boʻlgan va bir necha ijodkorlar tomonidan qalamga olingan ishqiy va dostonlardan birining nomi. Farhod Shirinning ishqida hech narsadan toʻxtamay, Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida oʻzining nimalarga qodir ekanini koʻrsatadi. Eron hukmdori Xusran bilan kurashda xiyla bilan qoʻlga olinib, qahramonlarcha xalok boʻladi. Uning sevgilisi Shirin esa uning jasadi ustida jon beradi. Layli va Majnun – fosiya – turkiy romantik dostonidir. Layli va Majnun – Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan folklor hamda yozma shakldagi adabiy yodgorlikdir [3]. Majnun Laylini ishqida juda koʻp qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi. Majnun Laylini ishqida telba holatiga tushib qoladi. Navoiy bu ikki mashhur juftlik haqida oʻzining ikki mashhur dostonini yaratadi. Bular “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlaridir. Navoiy bu bayt orqali oʻzining ishqini Farhod Shirinni, Majnun Laylini sevgisidan ustun ekanlagini yozadi. Chunki Navoiy Bu baytda Allohga boʻlgan ishqini tasvirlaydi.



Navoiy o‘zining g‘azallarida ustozlarini tilga olish orqali, talmeh san’atini juda ko‘p hosil qiladi. Quyidagi baytga qaraylik:

Ey Navoiy, seniy Xisrav bila Jomiy tavri,
San’atu rangini qo‘y, so‘zda kerak dard ila so‘z.

Bu baytda turkiy va forsiy adabiyotlarda mashhur shoirlar, Abdurahmon Jomiy va Xisrav Dehlaviy haqida gap ketadi.

Abdurahmon Jomiy-fors-tojik shoiri, naqshbandlik tariqatining yirik vakili. Jomiy o‘z asarlarini fors-tojik tilida yozgan, arab tilini ham yaxshi bilgan. Xorazmlik tilshunos ibn al-Hojibning arab tili nahv haqidagi Al-qofiya dasrligiga 1492-yilda sharh bitgan [3]. Jomiy “Panj ganch” asarining muallifidir.

Xusrav Dehlaviy-hind shoiri, adabiyotshunos, bastakor. Xusrav Dehlaviy “Xamsa” asarining muallifidir. Navoiy bu ikki shoir haqida o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham tilga oladi. Bu ikki shoirning ustozlaridan ekanligini aytib o‘tadi. Navoiy bu bayti orqali Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy forslar tilida ijod qilganligini aytib o‘tadi. Lekin Navoiy nima demoqchi bu bayti orqali? Navoiy forslar tilidan ko‘ra turkiy tilni ustun qo‘yadi. Chunki turkiy tildagi so‘zlarda dardlarni tushunishtirish osonroqdir. Bu baytda talmeh san’atidan tashqari nido san’atidan ham foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy she’riy san’atlardan juda samarali foydalanadi. Navoiy ijodidagi badiiy san’atlar har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafosati bilan, hilma-hil ifoda usullari bilan berilgani, o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shunidek nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ko‘rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtaliyev Boqijon, Karimov Bahodir, Usmonova Komila. O‘zbek milliy ensiklopediyasi- Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.184b.
2. Madvaliyev.A O‘zbek tilining izohli lug‘ati-Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti,2006-2008.
3. Navoiy Alisher Mukammal asarlar to‘plami.20 jildlik,Toshkent.: Fan, 1992.
4. Navoiy Alisher Qaro ko‘zum [Tahrir hay’ati: Qayumov.A, Oripov. A, Qosimov.B Mallaev.N, Yoqubov.O, Omon Matjon, G‘aniyeva.S]-Toshkent.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 768b



ИЗУЧЕНИЕ РУССКИХ ИДИОМ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ИНОСТРАННЫМИ СТУДЕНТАМИ: ТРУДНОСТИ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Хакимова Гузалина Муроджоновна

University of Business and Science

студентка 3 курса

linahakimova0@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются особенности освоения русских идиом и фразеологизмов иностранными студентами, анализируются основные трудности и предлагаются методические рекомендации по их преодолению. Отмечаются лингвокультурные барьеры, мешающие пониманию фразеологических конструкций.

Ключевые слова: фразеологизмы, идиомы, иностранные студенты, трудности восприятия, преподавание русского языка, методика, лингвокультурные барьеры.

STUDYING RUSSIAN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS BY FOREIGN STUDENTS: DIFFICULTIES AND WAYS TO OVERCOME THEM

Abstract: The article examines the peculiarities of mastering Russian idioms and phraseological units by foreign students, analyzes the main difficulties and offers methodological recommendations for overcoming them. Linguistic and cultural barriers that interfere with the understanding of phraseological constructions are noted. According to the author, the systematic inclusion of phraseology in the course of teaching Russian as a foreign language contributes to the formation of full-fledged speech competence.

Keywords: phraseological units, idioms, foreign students, difficulties of perception, teaching Russian, methodology, linguocultural barriers.

RUS TILI IDEOMLARI VA FRAZEOLOGIK BIRIKMALARI CHETILIK TALABALAR TOMONIDAN O'RGANISHI: QIYINCHILIKLARI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.

Annotatsiya: Maqolada xorijiy talabalar tomonidan rus tilidagi idiomalar va frazeologik birliklarni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi, asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi. Frazeologik tuzilmalarni tushunishga xalaqit beradigan lingvistik va madaniy to'siqlar qayd etilgan. Muallifning fikricha, rus tilini chet tili sifatida o'qitish kursiga frazeologiyani tizimli kiritilishi to'laqonli nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, idiomalar, chet ellik talabalar, idrok etish qiyinchiliklari, rus tilini o'qitish, metodologiya, lingvomadaniy to'siqlar.

Русская фразеология представляет собой уникальный пласт языка, отражающий историко-культурные особенности русской нации. Для иностранных студентов освоение идиом и устойчивых выражений является

особенно сложным этапом изучения, так как эти элементы речи обладают непрямым значением и специфическим национальным контекстом [1]. Лично я считаю, что игнорирование этой части языка препятствует формированию у студентов естественной и живой речи, понятной русскоязычным собеседникам.

Главной причиной сложностей является метафоричность фразеологических единиц. Иностранные студенты часто интерпретируют выражения буквально. Например, фраза «сидеть сложа руки» для них нередко воспринимается в физическом смысле, а не как обозначение пассивности [2].

По моему мнению, большую роль играет отсутствие аналогичных выражений в родном языке студентов. Лингвокультурные барьеры также усложняют восприятие: выражение «кот наплакал» вызывает недоумение у студентов, незнакомых с русскими образами мышления [3].

Структурная сложность некоторых выражений затрудняет их запоминание, а психологический страх ошибиться приводит к их избеганию в речи. Считаю необходимым активно разъяснять и моделировать использование идиом в живых ситуациях.

Иностранные студенты часто не используют фразеологизмы в речи из страха быть непонятыми [4]. Это создаёт замкнутый круг: недостаток практики приводит к отсутствию уверенности, а это, в свою очередь, препятствует дальнейшему обучению.

На своем опыте убеждена, что игровой формат работы с идиомами, ролевые диалоги и похвала за использование фразеологических оборотов существенно снижают психологический барьер. Обучение должно проходить в комфортной атмосфере, что позволит студентам свободно экспериментировать с речью.

Лично я выделяю несколько ключевых методов, способствующих успешному освоению идиом и фразеологизмов:

- **Визуализация:** изображения и комиксы упрощают понимание метафорического значения [5].
- **Этимологический анализ:** знание происхождения выражений укрепляет память и помогает понять их смысл.
- **Ситуативные игры:** использование выражений в реальных или смоделированных ситуациях закрепляет их в активном словаре.
- **Сравнительный подход:** поиск аналогов в родном языке студентов снижает когнитивную нагрузку [6].

Считаю, что совмещение этих методов эффективно устраняет как лингвистические, так и психологические барьеры.

Преподаватель должен систематически включать фразеологизмы в речевые образцы и контролировать их закрепление. Я использую повторное введение оборотов на следующих занятиях, что способствует долговременному запоминанию [7].



Важно, чтобы студент видел примеры активного употребления идиом в речи преподавателя. Это формирует у обучающихся представление о норме и уместности фразеологических конструкций в русском языке.

Идиомы и фразеологизмы отражают культурные традиции народа. Лично я убеждена, что изучение фразеологизмов необходимо сопровождать рассказами о русских обычаях, истории, литературе и повседневной жизни [8].

Понимание происхождения выражений помогает студентам проникнуться русской культурой и легче адаптироваться в русскоязычной среде. Фразеология способствует формированию межкультурной компетентности.

Фразеологизмы и идиомы — сложный, но важный элемент обучения русскому языку как иностранному. Их изучение требует особого внимания и применения многообразных методических приёмов. Лично я считаю, что без активной работы с фразеологией невозможно формирование естественной и культурно адекватной русской речи у иностранных студентов. Регулярное применение предложенных методик позволяет преодолеть языковые и психологические барьеры, способствует развитию уверенности и коммуникативной компетентности обучающихся.

Использованная литература

1. Ершова Т.А. Фразеология русского языка в обучении иностранцев. — М.: Русский язык, 2021. — 232 с. Николаева И.В. Основы преподавания русских идиом. — СПб.: Наука, 2020. — С.188
2. Кузнецова Л.П. Лингвокультурные аспекты фразеологизмов. — Новосибирск: НГУ, 2023. — С.245
3. Шахова М.В. Психологические барьеры в изучении русского языка. — Казань: КФУ, 2019. — С.159
4. Лебедева О.Р. Визуальные методы в преподавании РКИ. — М.: Просвещение, 2022. — С.206
5. Сидорова Е.Ю. Сравнительный анализ идиом в обучении РКИ. — Екатеринбург: УрФУ, 2021. — С.174
6. Петрова Н.Н. Методика обучения фразеологии на занятиях. — СПб.: БХВ-Петербург, 2023. — С.198
7. Макарова И.А. Фразеология как отражение русской культуры. — Самара: СамГУ, 2020. — С.213



13.00.00-Pedagogika fanlari
ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODLARI

Davranova Diloromxon Kamilovna
University of Business and Science
Pedagogika va Axborot tizimlari yo'nalishi
Sirtqi ta'limi AT 23/28 guruh talabasi
davronovadilorom1288@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash metodlarini tahlil qiladi. Tadqiqot adabiyotlar tahlili asosida axborot texnologiyalarini baholashning asosiy yondashuvlari, mezonlari va vositalarini o'rganadi. Maqolada pedagogik samaradorlik, texnik barqarorlik va iqtisodiy tejamkorlik kabi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholash metodlari taqdim etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kompleks baholash yondashuvi eng samarali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, baholash metodlari, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim.

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ
ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В данной статье анализируются методы оценки эффективности информационных технологий в современной системе образования. В исследовании изучаются основные подходы, критерии и инструменты оценки информационных технологий на основе анализа литературы. В статье представлены методы оценки по таким ключевым показателям, как педагогическая эффективность, техническая устойчивость и экономичность. Результаты показывают, что комплексный подход к оценке является наиболее эффективным.

Ключевые слова: информационные технологии, эффективность обучения, методы оценки, педагогические технологии, цифровое образование.

METHODS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INFORMATION
TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF MODERN EDUCATION

Abstract: This article analyzes methods for assessing the effectiveness of Information Technology in the modern educational system. The study explores the basic approaches, criteria and tools for evaluating information technology based on literature analysis. The article presents assessment techniques on key indicators such as pedagogical efficiency, technical stability and economic savings. The results show that the comprehensive assessment approach is the most effective.

Keywords: information technology, educational effectiveness, evaluation methods, pedagogical technologies, digital education.



Kirish.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalarida turli xil raqamli vositalar, elektron ta'lim platformalari va interaktiv dasturlar keng qo'llanilmoqda [1]. Biroq, ushbu texnologiyalarning haqiqiy samaradorligini baholash masalasi jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash - bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat texnik jihatlarni, balki pedagogik, psixologik va iqtisodiy omillarni ham hisobga olishni talab qiladi [2]. Mazkur tadqiqotning maqsadi zamonaviy ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan axborot texnologiyalarining samaradorligini baholashning asosiy metodlari va yondashuvlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot dolzarbligi shundaki, ta'lim muassasalari axborot texnologiyalariga katta mablag'lar sarflayotgan paytda, bu investitsiyalarning samaradorligini ob'ektiv baholash zaruriyati ortib bormoqda [3]. Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga o'tish axborot texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirdi va ularning samaradorligini baholash zaruratini kuchaytirdi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodiga asoslangan bo'lib, unda qiyosiy stilistik, tizimli tahlil kabi metodlar qo'llanilgan.

Birinchidan, pedagogik samaradorlik yondashuvi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning akademik yutuqlari, bilim sifati va o'zlashtirish darajasiga ta'sirni baholaydi [4]. Ko'pgina tadqiqotchilar bu yondashuvni asosiy deb hisoblaydilar, chunki ta'limning asosiy maqsadi bilim berish va kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Ikkinchidan, texnik samaradorlik yondashuvi tizimning barqarorligi, foydalanish qulayligi va texnik xususiyatlarini baholaydi [5]. Bu yondashuv ayniqsa axborot texnologiyalari infratuzilmasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik yondashuvi xarajatlar va natijalar nisbatini tahlil qiladi [6]. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalari uchun investitsiyalarning oqlanganligini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, kompleks baholash yondashuvi yuqoridagi barcha jihatlarni birlashtiradi va umumiy samaradorlik rasmini yaratadi [7]. Zamonaviy tadqiqotlar bu yondashuvning eng maqbul ekanligini ko'rsatmoqda.

Rus olimlari orasida Polat Y.S. va Buxarkina M.Y. axborot texnologiyalarini baholashda pedagogik va psixologik jihatlarning ahamiyatini ta'kidlaydilar [8].

Ular ta'lim jarayonida texnologiyalarning nafaqat samaradorligini, balki o'quvchilar psixikasiga ta'sirini ham hisobga olish zarurligini belgilaydilar.

O'zbek tadqiqotchilar orasida axborot texnologiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri masalasi tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Mahalliy sharoitlar va ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash metodlarini ishlab chiqish zaruriyati mavjud [9].

Natijalar va muhokama.

Adabiyotlar tahlili natijasida axborot texnologiyalarining samaradorligini baholashda to'rt asosiy yo'nalish mavjudligi aniqlandi. Pedagogik samaradorlik yo'nalishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning akademik yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [1]. Clark va Mayer (2023) tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalarida multimedia ta'lim vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasini o'rtacha 18-23% gacha oshirishi aniqlangan. Biroq, bu ko'rsatkichlar texnologiyalarning to'g'ri tanlovi va maqsadli qo'llanilishi sharti bilan erishiladi. Pedagogik samaradorlikni baholashda asosiy mezonlar sifatida o'quvchilarning dars davomidagi faolligi, mustaqil ish sifati, ijodiy faoliyat darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi kabi omillar e'tiborga olinadi. Hattie va Zierer (2023) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, axborot texnologiyalari o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini qondirish va differensiallashtirilgan ta'limni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, pedagogik samaradorlikni baholashda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va texnologik kompetentligi ham muhim omil hisoblanadi.

Texnik samaradorlik yo'nalishi bo'yicha olib borilgan tahlil natijalarida axborot texnologiyalari tizimlarining barqarorligi, ishonchliligi va foydalanish qulayligi asosiy baholash mezonlari ekanligi aniqlandi [5]. Nielsen va Budiu (2022) tadqiqotlarida zamonaviy ta'lim platformalarining texnik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, tizimning 24/7 ishlash qobiliyati, yuqori yuklamalar ostida barqarorlik, ma'lumotlar xavfsizligi va foydalanuvchilar interfeysi qulayligi kabi parametrlar alohida e'tiborga olingan. Texnik samaradorlikni baholashda tizimning yuklanish vaqti, xatoliklar chastotasi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari va scalability ko'rsatkichlari asosiy mezonlar hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muhitida texnik tizimlarning ishlash samaradorligi 99.5% dan past bo'lmasligi talab qilinadi, chunki har qanday texnik nosozlik ta'lim jarayonining uzilishiga va o'quvchilarning motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, texnik samaradorlikni baholashda kibersecurity aspektlari ham muhim o'rin tutadi, chunki ta'lim tizimlarida shaxsiy ma'lumotlar va akademik natijalar saqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar natijalarida axborot texnologiyalariga investitsiyalarning cost-benefit tahlili metodlari keng qo'llanilishi aniqlangan [6]. Levin va McEwan (2021) tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha, ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari loyihalarining iqtisodiy samaradorligi Total Cost of Ownership (TCO) va Return on Investment (ROI) ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Boshlang'ich investitsiyalar, operatsion xarajatlar, texnik xizmat ko'rsatish, xodimlarni o'qitish va tizimni yangilash xarajatlari umumiy xarajatlar tarkibiga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri rejalashtirilgan axborot texnologiyalari loyihalari 2-4 yil ichida o'zini qoplashi va keyingi yillarda sezilarli iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Biroq, iqtisodiy samaradorlikni baholashda nafaqat bevosita moliyaviy ko'rsatkichlar, balki bilvosita foydalar ham hisobga olinishi kerak, masalan, o'qituvchilarning ish unumdorligi oshishi,

o'quvchilarning akademik yutuqlarining yaxshilanishi natijasida muassasa reytingining oshishi va qo'shimcha grant mablag'lari jalb qilish imkoniyatlari.

Kompleks baholash yondashuvi bo'yicha olib borilgan tahlil natijalarida bu metodning eng keng qamrovli va ob'ektiv natijalar berishi aniqlangan [7]. Stufflebeam va Coryn (2020) tomonidan ishlab chiqilgan CIPP modeli (Context, Input, Process, Product) axborot texnologiyalarining samaradorligini baholashda to'liq ramka yaratadi. Ushbu yondashuvda kontekst tahlili (ta'lim muassasasining ehtiyojlari va maqsadlari), kiritma tahlili (mavjud resurslar va imkoniyatlar), jarayon tahlili (amalga oshirish sifati) va mahsulot tahlili (erishilgan natijalar) kompleks ravishda o'rganiladi. Rus tadqiqotchilari Polat va Buxarkina (2019) tomonidan ta'kidlanishicha, kompleks baholash yondashuvi nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga oladi, bu esa axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'sirini to'liqroq baholash imkonini beradi. O'zbek tadqiqotchilari kontekstida ushbu yondashuv mahalliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda modifikatsiya qilinishi zarur [10].

Tadqiqot natijalarining muhokamasi jarayonida ma'lum bo'ldiki, axborot texnologiyalarining samaradorligini baholashda yagona universal metodika mavjud emas va har bir ta'lim muassasasi o'zining spetsifik sharoitlariga mos keladigan baholash tizimini ishlab chiqishi zarur. Garrison va Vaughan (2023) ta'kidlashicha, baholash jarayoni statik emas, balki dinamik jarayon bo'lib, texnologiyalar rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlarining o'zgarishi bilan birga doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Shuningdek, baholash natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun turli manbalardagi ma'lumotlarni triangulatsiya qilish va stakeholderlarning barcha guruhlaridan (o'quvchilar, o'qituvchilar, ma'muriyat, ota-onalar) fikr-mulohazalarni olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda sun'iy intellekt va big data texnologiyalarining rivojlanishi baholash jarayonini avtomatlashtirish va ob'ektivlashtirish yangi imkoniyatlarini yaratmoqda, ammo inson omilining ahamiyati hali ham yuqoriligicha qolmoqda.

Xulosa.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash uchun kompleks yondashuv eng maqbul hisoblanadi, chunki u pedagogik, texnik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtiradi. Ikkinchidan, baholash jarayoni obyektiv mezonlarga asoslanishi va muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur. Uchinchidan, mahalliy sharoitlar va ta'lim tizimining xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu soha bo'yicha tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ayniqsa O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitlariga moslashtirilgan baholash metodikalarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi yangi baholash yondashuvlarini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Clark, R.C., & Mayer, R.E. (2023). E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning. John Wiley & Sons.



2. Kirkpatrick, D.L., & Kirkpatrick, J.D. (2022). Evaluating training programs: The four levels. Berrett-Koehler Publishers.
3. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. (2021). The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. Teachers College Record, 115(3), 1-47.
4. Hattie, J., & Zierer, K. (2023). 10 mindframes for visible learning: Teaching for success. Routledge.
5. Nielsen, J., & Budiu, R. (2022). Mobile usability: Principles for designing and evaluating mobile websites and apps. New Riders.
6. Levin, H.M., & McEwan, P.J. (2021). Cost-effectiveness analysis: Methods and applications. Sage Publications.
7. Stufflebeam, D.L., & Coryn, C.L. (2020). Evaluation theory, models, and applications. John Wiley & Sons.
8. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. (2019). Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. Академия.
9. Тўрақулов Х.А. (2022). Таълим тизимида ахборот технологияларининг самарадорлиги. Тошкент: Фан.
10. Garrison, D.R., & Vaughan, N.D. (2023). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. Jossey-Bass.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINI INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Karimjanov Shuhratjon Shokirjon o'g'li.

University of business and science

Pedagogika mutaxassisligi bo'yicha

Magistratura talabasi

Karimjonovshuhrat0608@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti va hamkorlik pedagogikasining integratsiyalash imkoniyatlari hamda duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – raqamli ta'lim sharoitida hamkorlikka asoslangan o'qitishning metodik asoslarini aniqlash, uning amaliy natijadorligini o'rganish va integratsiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashdan iborat. Maqolada xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahliliga, zamonaviy ta'lim platformalari tajribasiga va empirik kuzatuvlarga asoslangan holda raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasining samarali modellarini ishlab chiqish yo'llari yoritilgan. Natijalarda esa hamkorlik pedagogikasining raqamli vositalar yordamida ta'lim oluvchilarning ijtimoiy o'zaro ta'siri, tanqidiy fikrlashi va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi afzalliklari, shuningdek, texnologik va metodik to'siqlar haqida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim muhiti, hamkorlik pedagogikasi, integratsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, o'quvchilararo hamkorlik, raqamli kompetensiyalar, metodik muammolar



INTEGRATION OF COLLABORATIVE PEDAGOGY IN DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENTS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Abstract: This article explores the opportunities and challenges of integrating collaborative pedagogy into the digital learning environment. The aim of the study is to identify the methodological foundations of collaborative teaching in digital education, assess its practical effectiveness, and analyze the problems that arise during the integration process. Based on the analysis of both international and local scientific sources, practical experiences of modern educational platforms, and empirical observations, the article presents effective models for implementing collaborative pedagogy in digital settings. The findings highlight the advantages of collaborative learning using digital tools in enhancing learners' social interaction, critical thinking, and teamwork competencies, while also addressing existing technological and methodological barriers.

Keywords: Digital learning environment, collaborative pedagogy, integration, innovative educational technologies, distance learning, peer collaboration, digital competencies, methodological challenges

ИНТЕГРАЦИЯ КОЛЛАБОРАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ЦИФРОВУЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СРЕДУ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности и проблемы интеграции педагогики сотрудничества в цифровую образовательную среду. Цель исследования – определить методологические основы совместного обучения в условиях цифрового образования, оценить его практическую эффективность и проанализировать возникающие при интеграции трудности. На основе анализа как зарубежных, так и отечественных научных источников, опыта современных образовательных платформ и эмпирических наблюдений в статье представлены эффективные модели внедрения педагогики сотрудничества в цифровой среде. Результаты показывают, что совместное обучение с использованием цифровых инструментов способствует развитию у обучающихся социальных взаимодействий, критического мышления и командных компетенций, а также выявляются существующие технологические и методические барьеры.

Ключевые слова: Цифровая образовательная среда, педагогика сотрудничества, интеграция, инновационные образовательные технологии, дистанционное обучение, взаимодействие между учащимися, цифровые компетенции, методологические проблемы

Kirish: Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta'lim sohasi ham zamon talablari asosida tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy o'qitish modellari o'rnini bosayotgan raqamli ta'lim muhiti nafaqat bilim olish jarayonining texnik tomonlarini, balki pedagogik yondashuvlarni ham qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Xususan, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy hamkorlikda ishtirok etishi hamda tanqidiy tahlil qobiliyatini shakllantirish bugungi ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, raqamli



muhitda o‘quvchilararo o‘zaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan hamkorlik pedagogikasini ta’lim jarayoniga chuqur integratsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Hamkorlik pedagogikasi – bu faqatgina guruhda ishlash emas, balki o‘zaro ta’lim, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va ijtimoiy o‘zaro ta’sir asosida bilimni konstruktiv shakllantirish metodidir. Raqamli vositalar bilan boyitilgan bu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy faolligini rag‘batlantirish, ularning raqamli va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq ushbu yondashuvni zamonaviy ta’lim tizimiga moslashtirish bir qator muammolarni – texnologik, metodik, psixologik va tashkiliy to‘siqlarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, raqamli o‘quv muhitida samarali hamkorlikni ta’minlash uchun o‘qituvchilarning yangi pedagogik kompetensiyalarni egallashi, o‘quvchilarning esa raqamli savodxonlik darajasi yetarli bo‘lishi talab etiladi.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ta’lim jarayonlarini xalqaro talablarga moslashtirish yo‘lida so‘nggi yillarda bir qator tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy o‘qitish uslublarini keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Xususan, “2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-sonli Prezident qarori bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da raqamli ta’limni rivojlantirish, masofaviy o‘qitish tizimlarini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, hamkorlik asosidagi o‘qitish usullarini tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Yana shuni ta’kidlash joizki “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrir, 2020-yil)da ta’limning asosiy prinsiplari sifatida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish vazifalari belgilangan. Bu esa hamkorlikka asoslangan o‘qitish metodlarini raqamli muhitda faol qo‘llash zaruratini qonuniy jihatdan mustahkamlab beradi. Raqamli ta’limni rivojlantirishga doir muhim hujjatlardan yana biri — 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-sonli qaror bo‘lib, unda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim muassasalarini raqamlashtirish, pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish, interaktiv va masofaviy ta’lim vositalarini joriy etish choralari ko‘zda tutilgan. [1], [2], [3], [4]

Raqamli ta’lim muhiti zamonaviy o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi an’anaviy rollar transformatsiyalanib, o‘quvchi ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylanmoqda. Bu esa pedagogik yondashuvlar orasida eng samaralilaridan biri hisoblangan hamkorlik pedagogikasini raqamli muhitga moslashtirish va integratsiyalash zaruratini yuzaga keltiradi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat bilimlarni egallashni, balki o'quvchilarning o'zaro muloqotini, ijtimoiy mas'uliyatini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini, shuningdek, raqamli kompetensiyalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.[6], [7]

Zamonaviy ta'lim platformalari (Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle, Edmodo, ClassDojo kabi) hamkorlikka asoslangan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu vositalar orqali o'quvchilar guruhlarda ishlashi, umumiy vazifalarni bajarishi, fikr almashishi, bahs yuritishi va birgalikda qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan, Google Docs yoki Padlet kabi vositalar real vaqt rejimida hamkorlikda ishlash imkonini beradi. Biroq bu vositalarning samarali ishlatilishi ko'p jihatdan o'qituvchining raqamli savodxonligi, didaktik yondashuvi va ta'lim strategiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Afsuski, amaliyotda ko'plab pedagoglar faqat texnologiyadan foydalanish bilan cheklanib, metodik asoslarni yetarlicha e'tiborga olmaydilar. Natijada, raqamli vositalar bilan tashkil etilgan ta'lim jarayonida yuzaki hamkorlik yuzaga keladi, ammo chuqur o'zaro ta'sir, ijtimoiy o'rganish va fikrlar konstruksiyasi kabi komponentlar yetarli darajada shakllanmaydi. [5], [8], [10]

Bundan tashqari, raqamli hamkorlik muhiti o'ziga xos metodik va psixologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Birinchidan, o'quvchilar o'rtasidagi tengsiz raqamli imkoniyatlar (internet tezligi, qurilmalarning mavjudligi, shaxsiy texnologik tayyorgarlik) natijasida teng ishtirok ta'minlanmaydi. Ikkinchidan, raqamli muloqotda yuz ifodalari, tana tili va bevosita psixologik kontaktlar yo'qligi o'quvchilarning bir-birini tushunishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi muammo esa baholash bilan bog'liq: raqamli hamkorlik jarayonini obyektiv va adolatli baholash mexanizmlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, hamkorlik pedagogikasini raqamli muhitga integratsiyalash uchun o'qituvchilarni zamonaviy metodikalarga tayyorlash zarurati dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ko'plab o'qituvchilar an'anaviy metodlardan voz kechishga tayyor emas yoki zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur kompetensiyalarga ega emas. Bu esa ta'lim sifati va mazmunining oraliq holatda qolishiga olib keladi. Shu bois, raqamli ta'limni joriy etish jarayonida faqat texnik resurslar emas, balki metodik va psixopedagogik infratuzilmani ham barpo etish zarur.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, Finlandiya, Estoniya, Singapur kabi mamlakatlarda raqamli ta'lim va hamkorlik pedagogikasi integratsiyasi tizimli yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu davlatlarda o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilib, har bir o'quv jarayonida o'zaro hamkorlik, o'zaro baholash va refleksiya metodlari asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, ochiq raqamli resurslar, onlayn laboratoriyalar, jamoaviy loyiha ishlari orqali o'quvchilarning mustaqil va birgalikda o'rganish kompetensiyalari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimi ham ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirib, o'zining metodik bazasini boyitishi lozim. [8], [9], [10]



Amaliy tavsiyalar.

O‘qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish: Hamkorlik pedagogikasini raqamli ta’lim muhitiga integratsiyalashda o‘qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois pedagoglar uchun raqamli vositalar bilan ishlash, guruhlarda ishlash metodikasi, onlayn hamkorlik texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha uzluksiz o‘quv-amaliy kurslar tashkil etilishi taklif etiladi.

Raqamli platformalarda hamkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy etish: Ta’lim muassasalari Google Classroom, Moodle, Edmodo, Microsoft Teams kabi platformalarda o‘quvchilarning birgalikdagi ishlashini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar, loyiha ishlari va forumlar tashkil etishi lozim. Ayniqsa, o‘quvchilarni birgalikda qaror qabul qilish va muammoni hal etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar samaradorlikni oshiradi.

O‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish: Hamkorlikning muvaffaqiyati faqat o‘qituvchiga emas, balki o‘quvchilarning raqamli madaniyatiga ham bog‘liq. Shu sababli, ta’lim jarayoniga raqamli etikett, axborotni tanqidiy tahlil qilish, onlayn muloqot madaniyati bo‘yicha alohida darslar yoki mashg‘ulotlar kiritilishi kerak. [2], [4]

Xulosa.

Raqamli ta’lim muhiti va hamkorlik pedagogikasining integratsiyasi zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu yondashuv ta’lim oluvchilarning faolligi, ijtimoiy hamkorligi, raqamli va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar orqali samarali hamkorlikni tashkil etish nafaqat texnik yechimlarni, balki puxta pedagogik metodikani, o‘qituvchilarning zamonaviy yondashuvlarga tayyorligini va o‘quvchilarning raqamli savodxonligini talab etadi. Integratsiya jarayonida yuzaga kelayotgan texnologik, metodik va psixologik muammolar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, milliy model va pedagogik infratuzilma zarur. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali raqamli hamkorlikni o‘qitishning uzviy qismi sifatida tatbiq etish mumkin. Maqolada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar va yechimlar raqamli ta’limda hamkorlik pedagogikasini muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirish va inson kapitalini rivojlantirish jarayonida barqaror va samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-sonli qarori. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Yangi tahrir, 2020-yil, 23-sentabr).



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-sonli qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi PF–22-sonli Farmoni. “Milliy raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
5. Jonassen, D. H., Peck, K. L., & Wilson, B. G. (1999). Learning with Technology: A Constructivist Perspective. Merrill/Prentice Hall.
6. Dooly, M. (2008). Telecollaborative Language Learning: A Guidebook to Moderating Intercultural Collaboration Online. Peter Lang Publishing Group.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
8. Kozma, R. (2005). National policies that connect ICT-based education reform to economic and social development. Human Technology, 1(2), 117–156.
9. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2007). The state of cooperative learning in postsecondary education. Educational Psychology Review, 19(1), 15–29.
10. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.
11. Salavoy, P., & Mayer, J. D. (2004). Emotional Intelligence in Digital Collaboration. Harvard Educational Review, 74(1), 67–85.
12. Даниёрова, Г.Ж. (2021). Цифровая образовательная среда: понятие и компоненты. Педагогическое образование и наука, №3, 45–49.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYA TURLARINING ZARURATI.

*Nosirova Shoirra Xoldorxonovna.
University of Business and Science
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining turlari va ularning ahamiyati yoritilgan. Har bir tarbiya turi bolaning har tomonlama shakllanishida muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarbiya jarayonining uzviyligi va zarurligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, fuqorolik tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya.

НЕОБХОДИМОСТЬ ВИДОВ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды воспитания дошкольников и их значение. Каждый вид воспитания представлен как важный фактор всестороннего развития ребенка. Необходимость и непрерывность процесса воспитания проанализированы на научной основе.



Ключевые слова: Интеллектуальное воспитание, нравственное воспитание, трудовое воспитание, экологическое воспитание, физическое воспитание, эстетическое воспитание, гражданское воспитание, социальное воспитание.

THE NEED FOR TYPES OF EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN.

Abstract: This article explores the types of upbringing for preschool children and their importance. Each type is viewed as a key factor in the child's holistic development. The necessity and continuity of the educational process are analyzed from a scientific perspective.

Keywords: Intellectual education, moral education, labor education, ecological education, physical education, aesthetic education, civic education, social education.

Bolaning rivojlanishi va o'sishi kechasi yo kunduzi davom etadigan uzluksiz jarayondir. Bu davrda bola mustaqillikka o'rgatib boriladi. Endigina qadam qo'yib yurishni o'rgangan bolangiz qo'lini qo'yib yuborishingizni talab qiladi. Endigina tili chiqib gapirishni o'rganganida esa «men kattaman», deydi. Otasi yoki onasi kabi tezroq katta bo'lish istagi ularda hamma narsani mustaqil ravishda bajarishga bo'lgan intilishni keltirib chiqaradi. Farzandingizni kamoloti esa uning qanday tarbiya olishiga chambarchas bog'liq. Chunki buyuk jadid bobomiz Abdullo Avloniy aytganidek; «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir».

Mazmun nuqtai nazaridan yuksak hislar ma'naviy, intellectual va estetik his-tuyg'ulardan iborat bo'ladi. Ularni qo'rquv asossiz g'azablanish, organizmning och qolishi, kasallik tufayli vujudga keladigan emotsiyalardan farq qilib yuksak hislar deb ataydilar. Axloqiy tuyg'ular yoki ma'naviy his-tuyg'ular harakatlar, xulq-atvorga jamiyatda qabul qilingan axloq asosida baho berish bilan bog'liq bo'lgan kechinmalardir. Barcha tuyg'ular ichida eng oliy va muhimi albatta tarbiya hisoblanadi. Chunki tarbiyasi mukammal insonlar jamiyat uchun juda kerakli, hurmatga sazovor, kuchli bilim sohiblaridir. Ular jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Hayotning har bir davri rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birgalikda maktabga tayyorlangan holatda shakllantirishda aqliy qobiliyatni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini o'rgatish zarur.

Tarbiya turlari:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Mehnat tarbiyasi.
4. Estetik tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.



6. Fuqorolik tarbiyasi.

7. Jismoniy tarbiya.

Aqliy tarbiyasi yetuk o'tkir zehqli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik bu-donolik. Donolik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimizda «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», deyiladi

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etishga qarab belgilanadi. Pedagogika fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha yuk bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shugullanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'qish mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida amalga oshirib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat;

- Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
- Bilishga doir ruhiy jarayonni rivojlantirish.
- Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyati, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
- Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Abu Ali Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma istedodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni ikki kategoriyaga bo'ladi:

Nazariy aql-borliqdagi umumiy narsalarni idrok etish.

Amaliy aql-buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlar. Olim aqlni uch bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli, uchinchi bosqichda aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan inson tasvirlanadi [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida ahloqiy tarbiyaning mohiyati juda samarali ahamiyat kasb etadi «Ahloq» so'zi lotincha « moros», ya'ni moral so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan norma sifatida foydalanadi. Ahloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Ahloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar ahloqiy tarbiyalangan hisoblanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflo-ton va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan, davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo sharq



mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan, asosan, ota-ona shugullanishi kerak degan xulosaga kelishgan. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga kata e'tibor berishgan.

Eramizdan avvalgi 528-529 – yillar orasida Zardusht tomonidan yaratilgan «Avesto» kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, ahloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. «Avesto»da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotninhg tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tqazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan, uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy nozne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat;

1. Bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-xarakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarini barham toptirish.

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan birgalikda ularda axloq qoidalari va normalariga nisbatan talab yuzaga keladi. Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi [2].

Mehnat inson hayoti uchun uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib mehnat faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbayigina emas balki el-yurtga xizmat qilish vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirish manbayi hamdir.

Ota bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ilmiy badiiy kitoblar memorchilik obidalari san'at asarlarining barchasimehnatning mahsulidir

Buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniy inson kamolotida mehnat va mexnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etgan. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlari bo'lgan. Og'ir mehnat sifatidabinokor ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltirgan. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqirgan. Ularni ma'rifat tarqatuvchilar deb bilgan. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchilar –konchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak degan edi.

Olim bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida fikr yuritib, shu bilan birga inson har tomonlama kamolga yetishi uchun ilmi bo'lishi ham kerak degan g'oyani ilgari tuzadi.



Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan ifoda etgan. Yosh avlodni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Bolalarning o'zlarini mehnatga o'rgatish.
2. Kattalar mehnatini bilan tanishtirish.

Mehnat qilish muntazam ravishda bo'lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa, kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanib boradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni quyidagi mehnat turlariga jalb qilib boriladi:

1. O'z-oziga xizmat qilish.
2. Xo'jalik- maishiy mehnat qilish.
3. Tabiatda mehnat qilish.
4. Qo'l mehnati.
5. Yakka tartibdagi mehnat.
6. Bolalarning jamoa bo'lib ishlashlari.

Mehnat qilishga o'rgangan bolaning holati boshqachadir, boshqachalar u hamisha mehnat qilishga tayyor. Mehnatdagi muvaffaqiyat esa uning kayfiyatini ham o'zgartiradi: bola qanoat hosil qiladi, unda o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi va g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi.

Mehnat qilishga odatlanish tarbiyalanmasa, bolada har qanday mehnatga nafrat bilan qarash, kishi mehnatidan foydalanish kabi yomon odat tarbiyalanadi. Tajriba yana shuni ko'rsatadiki, ishyoqmas, yalqov bolalarga nisbatan mehnatsevar bolalar axloqiy jihatdan yuksakdir. Shuning uchun ham mehnat axloq tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat qilishni tushuntirish va ishontirish bilan birga qo'shib olib borilgan vaqtdagina bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalanadi[3].

Estetik tarbiya.

Estetik tarbiya keng ma'noli tushuncha bo'lib unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning hayolva fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonchini uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi.



Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilanadi:

1. Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolalarni san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.

- Estetik tarbiya vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- bolalarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
- tabiat, san'at asarlari;
- bolalarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar;
- ma'lum maqsadli va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim.

Bolalarga estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyachining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlashsiz go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi [4].

Ekologik tarbiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik tarbiya berish quyidagi usullarda olib boriladi:

1. Ko'rgazmali (kuzatish, rasmlar ko'rish, diafilmlar namoyish etish)
2. Amaliy (o'yin tarzida)
3. Og'zaki (hikoya, tushuntirish berish, badiiy asarlarni o'qib berish)

Ekologik bilim tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishini yer yuzidagi tirik jonzoatlarning holatini o'rganish, tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iborat. havoning ifloalanishi, uning tarkibidagi karbonat angidritning ko'payishi inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Daryolarni bo'g'ib, yo'lini to'sib, sun'iy dendizlar yaratish, yerlarni o'zlashtirish bilan shug'ullanildi. Bu «yutuqlar» tufayli tabiat qonunlari hamda uning murakkab va nozik muvozanati buzildi. Biroq odamlar bu ishlar turli-tuman ofatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida o'ylamadilar. Natijada o't-o'lanli yaylovlar buzilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Ekologik tarbiya shaxsiy muammo deb



qaralishi lozim Atrof-muhitning tozaligi, sofligini ta'minlash o'zimizga bog'liq. Ekologik tarbiyani oiladan, bog'cha yoshi davridan yosh avlodga singdirish kerak.

Martabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim –tarbiya dasturida bolalarga onatbiatga muhabbatni, o'simliklar, hayvonlar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini tarbiyalash, tabiat qo'ynida o'zini odobli tutish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish, muhofaza qilishga qiziqish uyg'otish, daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qiynamaslik ko'nikmalarini tarbiyalash kichik guruhdan boshlab amalga oshirishni ko'zda tutiladi. Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida tabiatga ehtiyotkorlik munosabatlari shakllanadi. Ularda tabiatni yanada gullab-yashnashi uchun o'z hissasini qo'shish, bundan tashqari qo'ldan kelgan mehnati bilan bu jarayonda qatnashish xohishini uyg'otadi.

Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglash orqali yosh avlodda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari asosan quyidagilardan iborat: yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish;

- bolalarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida elementlar ko'nikma va malakalar hosil qilish;

- bolalarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissin shakllantirish;

- bolalarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlariga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;

- Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlar bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

- Vtan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish;

- bolalarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning hamda burchlarining bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlaridan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir. (5;122-b)

Jismoniy tarbiya. Sog'lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o'z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, maktabdagi o'qishga va kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatida alohida ahamiyatni belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi ilk yoshdagi va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlar, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turning



o'ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog'liq ravishda bola psixikasida muhim o'zgarishlar kechadi va bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o'tishiga tayyorlanadi. Shunga muvofiq bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiyani tashkil qilish va ularni optimal pedagogik sharoitlarda amalga oshirishning barcha formalari mazmunini ishlab chiqadi.

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama tarbiyalash ishining muhim komponenti hisoblanadi, ayni paytda u aqliy, axloqiy estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarini kompleks tarzda hal etadi. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida tarbiyachining e'tibori fikrlaydigan, o'z yoshi imkoniyatlariga ko'ra ongli harakat qiladigan, harakat ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo'ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan bolani tarbiyalashga qaratiladi.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi muammolarning yechimini toppish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, doatonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik ota-onaga hurmat ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. “Alpomish”, “To'maris”, kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi olimlar hayotini band qilib kelgan ular o'zlarining bola tabiati ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun tarbiya turlari muhim ahamiyatga ega. Jismoniy, axloqiy, estetik, aqliy va mehnat tarbiyasi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir tarbiya turi o'ziga xos yondashuvni talab etadi va ularni uyg'unlashtirib olib borish bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvi, mustaqil fikrlashi va barkamol bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shu bois, tarbiya jarayonida ota-ona, pedagog va jamiyatning hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Mavlinova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. / O'qituvchi/. T-2010. (3-b).
2. M.X.Tadiyeva, S.I.Xusanxodjayeva. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi./ Iqtisod moliya/ T. 2014. (22-b)
3. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yishdagi bolalar psixologiyasi. /Faylasuflar/. T. 2013. (183-b)



4. L. Dilmurod qizi. Tarbiya sirlari. /Adabiyot uchqunlari/. T. 2016. (3-b)
5. Mualliflar jamoasi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. /Ilm-ziyo/. T. 2012. (80-125b)

BOSHLANG’ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH

Turg’unova Gulzoda Botir qizi
University of Business and Science
Boshlang’ich ta’li yo’nalishi
2-kurs talabasi
gulzodabotirovna96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari va usullari yoritiladi. Mustaqil ishlar o’quvchilarning matematik bilim va ko’nikmalarini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va amaliy ko’nikmalarini shakllantirishda muhim ro’l o’ynaydi. Maqolada mustaqil ishlarning turi, ularni samarali tashkil etish yo’llari va pedagogik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Mustaqil ish, boshlang’ich sinf, matematika, ta’lim usullari, ta’lim shakllari, didaktik tamoyillar.

ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADE MATHEMATICS LESSONS

Abstract: This article discusses the main forms and methods of organizing independent work in elementary school mathematics lessons. Independent work strengthens students' mathematical knowledge and skills, develops independent thinking, and plays an important role in the formation of practical skills. The article discusses the types of independent work, ways to effectively organize it, and pedagogical approaches.

Keywords: Independent work, elementary school, mathematics, teaching methods, teaching forms, didactic principles.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В статье рассматриваются основные формы и методы организации самостоятельной работы на уроках математики в начальной школе. Самостоятельная работа закрепляет математические знания и умения учащихся, развивает самостоятельное мышление и играет важную роль в формировании практических навыков. В статье рассматриваются виды самостоятельной работы, способы её эффективной организации и педагогические подходы.

Ключевые слова: Самостоятельная работа, начальная школа, математика, методы обучения, формы обучения, дидактические принципы.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fani nafaqat asosiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, balki mantiqiy fikrlash, mutaqil ishlash va masalalarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish vositasidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanish zarur. Mustaqil ishlar bolaning o'z ustida ishlashga, izlanishga va o'z fikrini mustaqil bayon qilishni o'rgatadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish ozim:

- O'quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish;
- Mustaqil ishlashga o'quvchini qiziqtura olish;
- Ta'lim mazmunini o'quvchilarga moslashtirib bera olish;
- Mustaqil ishlarga turli metodik yondashuvlardan foydalanish;

Quyida keltirilgan boshlang'ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil qilish shakllari va usullari batafsil yoritiladi: Matematika darslarida mustaqil ishlar turlicha shakllarda bayon etilishi mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

1) Reproduktiv mustaqil ishlar –asosiy belgisi faoliyat usulini tiklash va o'qituvchining topshiriqlari bo'yicha takrorlashdan iborat ya'ni bu ishlar orqali o'quvchilar avval o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashadi. Masalan, misollarni yechishadi, matematik formulalarni qo'llashadi.

2) Qisman izlanish mustaqil ishlar-o'quvchilar muammoli vaziyatlar orqali yechim topishga harakat qilishadi. Masalan, murakkab masalalarni yechish yoki turli strategiyalarni qo'llash orqali .

3) Tadqiqotga asoslangan mustaqil ishlar-o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlari topib, o'rganib, xulosa chiqarishadi. Masalan, qoidalar va qonuniyatlarni mustaqil ravishda kashf qilishadi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ishlar turli shakllarda tashkil etilishi mumkin:

Individual mustaqil ishlar –o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularga turli darajadagi topshiriqlar beriladi. Masalan, bir o'quvchi oddiy misollar yechsa, ikkinchisi murakkab masalalar ishlaydi.

Juftlikda ishlash–ikki o'quvchining birgalikda ishlashi orqali bilim almashinuvi amalga oshiriladi. Bu usul hamkorlikda o'rganish, fikr almashish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Guruhli ishlash-guruh bo'lib ishlash orqali o'quvchilar muloqot qilish, bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rish va umumiy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhli ishlar jamoaviy fikrlashni rivojlantirishga juda katta yordam beradi.

Differensial yondashuv asosida tashkil qilingan mustaqil ishlar-o'quvchilar bilim darajasiga qarab turli topshiriqlar bilan shug'ullanishadi. Bu usul individual yondashuvni ta'minlaydi va har bir bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish uchun quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin:



Muammoli ta’lim usuli-matematika darslarida o’quvchilarga muammoli vazifalar berilib, ularning qanday usul bilan bu misollarni yechishiga ahamiyat berish.

O’yinli usul-darslarda o’yin elementlaridan foydalanish orqali o’quvchilarni darsga qiziqishini oshirish.

Ko’rgazmali uslubiy yondashuv –turli visual materiallardan foydalanish orqali matematik tushunchalarni oson tushunishga yordam beradi.

Mustaqil ishlarning elektron variantlari –zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, interaktiv topshiriqlar, onlayn testlar orqali mustaqil ishlar tashkil etilishi mumkin.

Mustaqil ishlarni tashkil qilishda fanlararo integratsiyadan foydalanish — ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vositadir. Masalan, matematika darsida tarixiy shaxslar hayoti asosida masalalar tuzish, xalqona sanash usullari yoki qadimiy o’lchov birliklaridan foydalanish orqali nafaqat matematik ko’nikmalar, balki ma’naviy-estetik dunyoqarash ham shakllantiriladi. Misol: “Al-Xorazmiy 780-yilda tug’ilgan. 2025-yilgacha nechta yil o’tgan?” — bu kabi masalalar orqali o’quvchilar ham sanash, ham tarixiy tafakkurni rivojlantiradi.

Mavzuga oid hayotiy misollarni qo’llash

O’quvchilarning mustaqil ishlashini rag’batlantirishda hayotga yaqin, milliy qadriyatlarga boy misollardan foydalanish muhim. Masalan: “Ona 2 gaz mato olib, 1 gazidan ko’ylak, qolganidan ro’mol tikdi. Ro’mol uchun nechta metr mato ketgan?”

Bunday masalalar bolaning ongi va qalbiga yaqin bo’ladi, natijada dars mazmunli va esda qolarli o’tadi.

O’qituvchining metodik yondashuvi

O’qituvchi mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- O’quvchilarning qiziqishi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish
- Turli metodlardan foydalangan holda, bir xil mavzuga turlicha topshiriqlar tuzish
- Har bir topshiriqning bilim, ko’nikma va tarbiya jihatidan tahlil qilinishi

Bu o’quvchilarning fikrlash tezligini, mustaqil ishlash ko’nikmasini va fanga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalar bilan uyg’unlik

Bugungi kunda mustaqil ishlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’unlashtirish ham dolzarb. Onlayn testlar, interaktiv platformalar, elektron darsliklar orqali o’quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berish — ularning bilim darajasini baholashda shaffoflikni ta’minlaydi. Shunday qilib, mustaqil ishlar faqatgina bilimni mustahkamlash vositasi bo’lib qolmay, balki o’quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, vatanparvarlik, o’z fikrini ifoda eta olish, milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o’rin tutadi.

Boshlang’ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish o’quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyatini



rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati, masalalarni turli yo'llar bilan yechish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mustaqil ishlar orqali o'quvchi nafaqat bilimni o'zlashtiradi, balki o'rganilgan bilimni amalda qo'llashga, izlanishga, o'z fikrini asoslab berishga o'rganadi.

Mazkur maqolada yoritilganidek, mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, turli shakl va usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Reproduktiv, qisman izlanish, tadqiqotga asoslangan ishlar, individual, juftlikda, guruhli hamda differensial yondashuv asosidagi topshiriqlar — har biri o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Shu bilan bir qatorda, fanlararo integratsiya asosidagi yondashuv, ya'ni matematika darslarini ona tili, tarix, atrof-muhit, tasviriy san'at bilan bog'lab olib borish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, dunyoqarashi boyiydi va bilimlar hayotga yaqinlashtiriladi. Bu orqali o'quvchida nafaqat raqamlar bilan ishlash ko'nikmasi, balki tushunchalarni bog'lash, izchil fikrlash, ijodiy yondashuv rivojlanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarga tayanilgan mustaqil ishlar orqali o'quvchida vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, mehnatsevarlik va o'zlikni anglash hissi kuchayadi. Bu esa darsni nafaqat bilim, balki tarbiya beruvchi muhim vositaga aylantiradi. O'qituvchining bu jarayondagi roli esa beqiyos: u o'quvchining salohiyatini ko'ra oladigan, uni to'g'ri yo'naltira oladigan, fan bilan hayotni bog'lay oladigan shaxs bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni to'g'ri va metodik jihatdan asoslangan tarzda tashkil qilish orqali o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, balki ularning fikrlash madaniyati, mustaqil o'rganish ko'nikmasi, va eng muhimi – shaxs sifatida shakllanishi ta'minlanadi. Bu esa ta'limning asosiy maqsadlariga to'liq xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hasanboyeva M. Boshlang'ich sinf ta'limida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. — B. 25–31.
2. Karimov O. Matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari. — Samarqand: Ilm-Fan nashriyoti. — B. 14–20; 45–48.
3. Nizomov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. — B. 62–70.
4. Karimova D. Ta'limda milliy qadriyatlar: nazariya va amaliyot. — Toshkent, 2018. — B. 14–18; 79–82.
5. Jo'raev T.J. Matematika o'qitish metodikasi. — Toshkent, 2021. — B. 45–52; 88–90.
6. Sodiqova M.G'. Boshlang'ich sinfda matematika darslarini tashkil etish. — Toshkent, 2020. — B. 27–31; 65–68.
7. Maxmudova S. Matematika fanini integrallashgan holda o'qitish metodikasi. — NamDU ilmiy to'plami, 2022. — B. 93–98.



8. Beruniy A. Qadimgi xalqlarning son va o'lchov haqidagi qarashlari. — Toshkent, 2010. — B. 17–21.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA JONLI TABIAT BURCHAGI ORQALI EKOLOGIK VA TABIIY BILIM-KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi

University of Business and Science

M.PD-24-01 talabasi

maftuna.0505.bb@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik va tabiiy bilim-ko'nikmalarni shakllantirishda jonli tabiat burchagining ahamiyati yoritiladi. Tabiatga g'amxo'rlik, kuzatuvchanlik, mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol va amaliy metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik tarbiyaning samarali yo'llari, integratsiyalashgan mashg'ulotlar va kichik loyihalar orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, jonli tabiat burchagi, ekologik tarbiya, amaliy mashg'ulotlar, tabiiy bilimlar, interfaol metodlar, ekologik madaniyat, kuzatuvchanlik, tabiatga e'tibor.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ И ПРИРОДОВЕДЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ УГОЛОК ЖИВОЙ ПРИРОДЫ.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение живого уголка природы в формировании экологических и природоведческих знаний и навыков у учащихся начальных классов. Анализируются эффективные методы, направленные на развитие у детей наблюдательности, ответственности и бережного отношения к природе. Особое внимание уделяется практическим занятиям, интерактивным подходам, интегрированным урокам и проектной деятельности, способствующим формированию экологической культуры у младших школьников.

Ключевые слова: Начальное образование, живой уголок природы, экологическое воспитание, практические занятия, природоведческие знания, интерактивные методы, экологическая культура, наблюдательность, забота о природе.

METHODS OF DEVELOPING ECOLOGICAL AND NATURAL KNOWLEDGE AND SKILLS IN PRIMARY GRADE STUDENTS THROUGH THE CORNER OF LIVING NATURE.

Abstract: This article explores the role of the live nature corner in developing ecological and natural science knowledge and skills among primary



school students. It analyzes effective methods aimed at fostering children's observation skills, sense of responsibility, and caring attitude toward nature. Special attention is given to practical activities, interactive approaches, integrated lessons, and small ecological projects that contribute to the development of ecological awareness and culture in young learners.

Key words: Primary education, live nature corner, ecological education, practical activities, natural science knowledge, interactive methods, ecological culture, observation skills, care for nature.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida ekologik ta'lim va tabiatni muhofaza qilish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ongni shakllantirish va tabiiy bilim-ko'nikmalarni rivojlantirish uchun jonli tabiat burchagi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Jonli tabiat burchagi – bu maktab xonalarida yoki sinf darsxonalarida tashkil etiladigan o'simliklar va ba'zi hayvonlar bilan to'ldirilgan maxsus hudud bo'lib, u bolalarga tabiat bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tabiatan qiziquvchan va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Aynan shu davrda ularning tabiatga nisbatan munosabati shakllanadi va ekologik madaniyat asoslari quriladi [1]. Jonli tabiat burchagi orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Tadqiqot maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli tabiat burchagi orqali ekologik va tabiiy bilim-ko'nikmalarni rivojlantirish usullarini o'rganish va ularning samaradorligini baholashdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: jonli tabiat burchagining tashkil etilishi tamoyillarini aniqlash, o'quvchilarning ekologik bilim darajasini baholash, tabiat burchagi orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlarning samaradorligini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik va tabiiy bilim-ko'nikmalarni rivojlantirishda jonli tabiat burchagining o'rnini aniqlash va samaradorligini baholash asosiy maqsad etib belgilandi. Shu bois, tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuv va usullar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil usuli: Pedagogika, ekologik tarbiya va boshlang'ich ta'lim sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar tahlil qilindi [2]. Bu orqali jonli tabiat burchagining tarbiyaviy imkoniyatlari va u orqali beriladigan bilimlarning mazmuni aniqlashtirildi [3].

2. Tajriba-sinov metodikasi: Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan jonli tabiat burchagida amalga oshirilgan mashg'ulotlar tajriba-sinov asosida tashkil etildi. Sinov guruhida maxsus ekologik mashg'ulotlar, kuzatuvlar va mini-loyihalar o'tkazildi, nazorat guruhida esa an'anaviy darslar asosida o'qitildi. Olingan natijalar taqqoslab tahlil qilindi [4].



3. Kuzatuv va diagnostika usullari: O‘quvchilarning ekologik savodxonlik darajasi, tabiatga munosabati, mustaqil kuzatuv olib borish qobiliyati maxsus so‘rovnoma, suhbatlar va kundalik yozuvlar asosida baholandi [5].

4. Interfaol metodlar: “Fikrlar almashinuvi”, “Rol o‘ynash”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Eko-loyihalar” kabi interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning ekologik fikrlash ko‘nikmalari rivojlantirildi [6].

Tadqiqot natijalari tahlili: Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jonli tabiat burchagi orqali ekologik va tabiiy bilim-ko‘nikmalarni shakllantirishning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Sinov ikki bosqichda amalga oshirildi: boshlang‘ich (diagnostik) bosqich va yakuniy (nazorat) bosqich.

1. Diagnostik bosqich natijalari: Tajriba boshlanishidan oldin o‘quvchilarning ekologik bilimlari va tabiatga bo‘lgan munosabatini aniqlash maqsadida savolnoma va suhbatlar o‘tkazildi [7].

Quyidagi jihatlar baholandi:

Ekologik tushunchalarning mavjudligi; [8].

Tabiiy ob'ektlarga nisbatan munosabat;

Mustaqil kuzatuv va g‘amxo‘rlik ko‘nikmalari.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat o‘quvchilarda ekologik tushunchalar yuzaki bo‘lib, jonli organizmlarga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha amaliy tajriba yetarli emas edi [9].

2. Tajriba ishlari natijalari: Tajribada sinov guruhi o‘quvchilari bilan jonli tabiat burchagida muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Ular o‘simliklar va hayvonlarga parvarish ko‘rsatish, kuzatish kundaliklarini yuritish, mini-loyihalarda ishtirok etishdi [10]. Taqqoslash uchun nazorat guruhi an‘anaviy darslar asosida o‘qitildi.

3. Yakuniy bosqich natijalari: Yakuniy baholash natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Ekologik bilim darajasi 85%

Mustaqil kuzatuv ko‘nikmasi 80%

Tabiatga g‘amxo‘rlik munosabati 90%

Faollik va ishtirok darajasi 88%

Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, jonli tabiat burchagi asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar ekologik tarbiyada yuqori natijalar beradi. O‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik madaniyat va kuzatuvchanlik shakllanadi.

Tadqiqot natijalari jonli tabiat burchagining ekologik tarbiyani rivojlantirishdagi o‘rni katta ekanligini isbotladi. Bu metodning tizimli va ijodiy asosda qo‘llanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ekologik savodxonlikni oshirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Muhokama.

Tadqiqot jarayonida jonli tabiat burchagi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik va tabiiy bilim-ko‘nikmalarni shakllantirishning ijobiy jihatlari va samaradorligi aniqlandi [11]. Tajriba asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar



natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning tabiatga nisbatan qiziqishi, mas’uliyati va kuzatuvchanligi sezilarli darajada oshdi.

Interfaol usullarning qo‘llanilishi – xususan, guruhiiy ishlar, rolli o‘yinlar va mini-loyihalar – o‘quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita bo‘ldi. Ayniqsa, “Ekolog”, “Tabiat qo‘riqchisi” kabi rollarda ishtirok etish orqali bolalar o‘zlarini real hayotdagi vaziyatlarda tasavvur qilishga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishga harakat qildilar [12]. Shuningdek, o‘quvchilarning jonli tabiat burchagida olib borgan kuzatuv kundaliklari ularning mustaqil fikrlashi va o‘zgarishlarni tahlil qilish qobiliyatini mustahkamladi. O‘simlik va hayvonlarga parvarish ko‘rsatish orqali ular mehnatsevarlik va g‘amxo‘rlik kabi fazilatlarni amaliyotda o‘zlashtirdilar. Biroq tadqiqot davomida ayrim qiyinchiliklarga ham duch kelindi. Xususan, jonli tabiat burchagini to‘g‘ri tashkil qilish, unga yetarli jihozlar va parvarish vositalari bilan ta‘minlash muammosi kuzatildi. Shuningdek, barcha o‘qituvchilar bu borada yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi ma‘lum bo‘ldi [13]. Shu bois, pedagoglar uchun maxsus metodik tavsiyalar va seminar-treninglar tashkil etish zarur deb hisoblanadi. Umuman olganda, jonli tabiat burchagi boshlang‘ich ta‘limda ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uni to‘g‘ri tashkil qilish va metodik yondashuvni tizimlashtirish orqali bu jarayon yanada samarador bo‘ladi.

Xulosa.

Jonli tabiat burchagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiya va tabiiy bilim-ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu burchak orqali bolalarda tabiatga nisbatan mehr, g‘amxo‘rlik, javobgarlik kabi fazilatlar shakllanadi, ekologik tafakkuri rivojlanadi. Jonli tabiat burchagida olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar, kuzatuvlar, interfaol o‘yinlar va kichik loyihalar o‘quvchilarning bilimga qiziqishini oshirdi, ularni faol va ijodkor shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qildi. Bu jarayon orqali bolalar nafaqat bilim oldilar, balki uni hayotda qo‘llash, fikr yuritish va o‘z xulqini baholashni ham o‘rgandilar. Shu bois, har bir boshlang‘ich sinfda jonli tabiat burchagini tashkil etish, uni to‘g‘ri boshqarish va pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ularning ongli, mas’uliyatli, atrof-muhitga befarq bo‘lmagan fuqarolar bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Jonli tabiat burchagi orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki amaliy ko‘nikmalar, kuzatish qobiliyati, mas’uliyat hissi va tabiatga nisbatan sevgi tuyg‘usini ham rivojlantiradilar [14]. Bu yondashuv o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va ularni kelajakda ekologik masalalar yechimida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdukodirov, A. Ekologik tarbiyaning nazariy va amaliy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2009.



3. Turg'unov, B. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiya. – T.: Fan, 2015.
4. Zunnunov, A., Mamatqulov, O. Tabiatshunoslik asoslari va metodikasi. – T.: TDPU, 2020.
5. Matmurodova, M. Jonli tabiat burchagi: tashkil etish va o'qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2021.
6. Saidova, N. Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – N.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017.
7. G'ulomov, A. Ekologik psixologiya. – T.: O'zbekiston, 2010.
8. Abdullaeva, Z. O'quvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari. – T.: TDPU, 2019.
9. Jumaniyozova, S. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2022.
10. Mahkamova, R. Interfaol metodlar asosida ekologik ta'lim berish. – T.: TDPU, 2020.
11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017.
12. Bahromova, M. Tabiatshunoslik darslarida ekologik tarbiya berish. – Respublika ilmiy-amaliy maqolalar to'plami, 2021.
13. Mirzayeva, M. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali ekologik bilimlarni chuqurlashtirish. – TDPU ilmiy jurnali, 2020.
14. Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-60-son qarori. Yoshlar ekologik tarbiyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida.



“UBS talabalar tadqiqotlari jurnali”

2025/2-son

Jurnalda maqolalarni terish 20-iyulda boshlandi.

1-avgust kuni bosishga ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi A4. Adadi 10 ta nusxa.

Baxosi shartnoma asosida

Tahririyat manzili:

Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** uzinfo@ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti

<https://ubsu.uz/uz>

© UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE 2025